

**Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-
psixologiya fakul'teti Pedagogika – psixologiya yo`nalishi IV-bosqich talabasi
Eshmamatova Orastaning “Kasb-hunar kolleji o`quvchilarida milliy g`ururni
shakllantirishning pedagogik shart — sharoitlari” nomli bitiruv malakaviy
ishiga**

T A Q R I Z

Kasb-hunar kolleji o`quvchilarida milliy g`ururni shakllantirish va rivojlantirish nafaqat pedagogik-psixologik muammo, balki ijtimoiy ahamiyatga molikdir. O`quvchilik davrida milliy g`ururni shakllantirish mustaqillik va o`z-o`zini boshqarish hamda rivojlanishiga yordam beradi. Shu bois, bo`lajak kichik mutaxassisda milliy g`ururni tarbiyalashga oid sifatarni shakllantirish jarayonining pedagogik asoslarini ishlab chiqilganlik darajasiga bog`liq bo`ladi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” da ta`lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o`tmish mafkuraviy qarashlaridan to`la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma`naviy-axloqiy talablarga javob beradigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy maqsad qilib qo`yilgan. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta`lim tizimining insonni intellektual va ma`naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash imkoniyatlariga tayanish maqsadga muvofiqligini ifoda etib, har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi.

Talaba Eshmamatova O mana shularni hisobga olib bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlagan. Tadqiqot ishida milliy g`urning o`zi nima? Uning mazmun-mohiyati nimadan iborat? Ekanligi asoslab ko`rsatib berilgan.

Muammoning o`rganilganlik darajasi asoslab ko`rsatib o`tilgan.

Tadqiqot uchun obyekt sifatida pedagogika kollejidagi ta`lim jarayoni, o`qituvchilar (o`qitish) faoliyati va o`quvchilar (o`qish) o`quv faoliyatlarida milliy g`urur sifatlarini shakllantirish olingan.

Talaba Eshmamatova O muammoning dolzarbligini asoslash, tadqiqot mavzusini atroflicha ochib berishga harakat qilgan.

Tadqiqot ishida maqsad aniq belgilangan bo`lib, pedagogika kolleji

o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirish pedagogik muammo ekanligini aniqlash va unga uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratligi ko'rsatib o'tilgan.

Bitiruv malakaviy ishida talaba tadqiqot metodlaridan asosli foydalangan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi Davlat attestasiyasi talablariga javob berishini hisobga olib, uni himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi;

**Maktabgacha ta`lim nazariyasi va
uslubiyati kafedrası mudiri
dots;A.R.Meliboev.**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI
“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Pedagogika-psixologiya fakulteti
dekani v/b _____ dots.R.Abdurasulov
“ _____ ” _____ 2014 y.

51408000 – Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

**“KASB-HUNAR KOLLEJI O'QUVCHILARIDA MILLIY G'URURNI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART — SHAROITLARI”**
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: Eshmamatova Orasta

Ilmiy rahbar: o'qit. L.To`raqulov

Ishni himoyaga tavsiya etaman o'qit. o'qit. L.To`raqulov
(ilmiy rahbar ismi va sharifi)

(imzo)

BMI “Pedagogika psixologiya”
kafedra _____ sonli yig'ilish qarori bilan
(_____, _____ 2014 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: p.f.n. I.X.To'raqulova
(Ismi va sharifi)

(imzo)

JIZZAX – 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. KASB-HUNAR KOLLEJI O'QUVCHILARIDA MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	10
1.1. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirish pedagogik muammo sifatida.....	10
1.2. O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishda oilaning o'rni.....	21
II BOB. KASB-HUNAR KOLLEJI O'QUVCHILARIDA MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI	30
2.1. Dars jarayonida o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	30
2.2.O'quvchilarda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar asosida milliy g'ururni shakllantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	45
2.3. O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishga oid tajriba-sinov ishlari va ularning tahlili	52
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	61
Ilovalar	63

KIRISH

Muammoning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda o'quv muassasalarining moddiy bazasi mustahkamlandi, o'quv jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalari joriy etilmoqda, dastur va darsliklar mafkuraviy jihatdan davr talablariga moslashtirildi, mazmunan boyitildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning bosh sababchisi va harakatga keltiruvchi kuchi inson. Uning barkamol rivojlanishi, xalqning turmush farovonligini, shaxsning manfaatlarini amalga oshirish amaliy mexanizmlarini va sharoitlarini yaratish masalasi bo'lib hisoblanadi. Respublikamizda mavjud zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy ta'lim jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanib, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy vazifalarni amalga oshiradi.

Yangicha dunyoqarash, keng ma'naviy mustaqillikning eng muhim sharoitlaridan biridir. Ma'naviyat bo'lmasa mustaqillik ham, taraqqiyot ham, imon-e'tiqod ham bo'lmaydi. "Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish,-deb ta'riflaydi yurtboshimiz I.A.Karimov,-O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifalaridir"¹.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmish mafkuraviy qarashlaridan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma'naviy-axloqiy talablarga javob beradigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimining insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash imkoniyatlariga tayanish maqsadga muvofiqligini ifoda etib, har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi.

Dasturda kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri shaxs ekanligiga urg'u berilib, "shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi" ekanligi va davlat tomonidan shaxsni tarbiyalash, uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanishi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Milliy istiqlool mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonch» nomli asarida keng jamoatchilik, olim,

¹ Karimov I.A. "O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura". –T.: "O'zbekiston", 1998 y, -78 b.

shoir va yozuvchilardan mafkura masalasiga jiddiy ahamiyat berishni talab etib, jamiyat oldida turgan eng muhim masala, bu milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etish ekanligini ta'kidladi. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi negizida yoshlar, jumladan, o'quvchilarni ajdodlarga, ularning turmush tarzi, e'tiqodlari va hayotiy yondashuvlariga munosib etib tarbiyalash g'oyalari yotadi.

Mustaqillik xalqimiz hayotiga so'z va fikr erkinligini, shu bilan birga ilgari ta'qiqlab kelingan ko'pgina "milliy iftixor", "milliy g'urur" kabi tushunchalar o'zining haqiqiy mazmuniga ega bo'lmoqda. Asrlar davomida shakllanib kelgan va sobiq ittifoq davrida yo'qolib borayotgan milliy qadriyat va milliy g'ururimiz qaytadan tiklanmoqda.

Milliy g'ururimizni o'z holiga keltirish va rivojlantirishda xalqimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlarini, milliy bayramlari, boy qadimiy merosi muhim ahamiyatga ega. Madaniy-ma'naviy merosimiz, asriy an'alarimiz avlod-ajdodlarimizdan bizlarga yetib kelgan, bugungi hayotimiz uchun xizmat qilayotgan eng katta ma'naviy boylik, buyuk xazinadir.

Milliy g'urning o'zi nima? Uning mazmun-mohiyati nimadan iborat? "Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati"¹ida – milliy g'urur to'g'risida quyidagi fikrlar bildirilgan.

- Milliy g'urur – har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Bu tuyg'u o'z ona zaminida, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalaridan, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissiyotidir. Milliy g'urur o'z millatining chinakam fidoyisi bo'lgan har bir insonga xos ichki ruhiy tuyg'udir. O'z millatini sevadigan har bir inson, uning yutuqlari obro'-e'tibori bilan faxrlanadi, zavqlanadi, uning muammolariga befarq qarab tura olmaydi. Milliy g'ururi yuksak inson o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'ladi, uning yutuqlaridan quvonadi. Milliy g'urur har bir insonda o'z millatining moddiy, ma'naviy meroslarini o'zlashtirish, urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini va tarixini mukammal bilishi hamda uni o'zga millatlarniki bilan qiyoslash natijasida shakllanadi. Natijada unda o'z millatiga mehr-muhabbat oshib boradi.

Milliy g'ururi mustahkam bo'lgan millat vakillarining kuchi bilan yengish mumkin emas, uni ma'naviy-ruhiy jihatdan ham yengib bo'lmaydi. Uning ichki ruhiy qudrati millat qadrini ko'tarishning yengilmas salohiyati sifatida saqlanib qoladi va millatni rivojlantirishning mustahkam zamini bo'ladi.

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqit

¹ Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati.// Mualliflar: M.Abdullayev va boshqalar. –T.: "Sharq", 1998 y, -320 b.

yo'li" asarida "Davlatimiz ramzlari – bayroq, tamg'a, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash – o'zini qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash demakdir. O'z mamlakati bilan faxrlanadigan inson juda ko'p narsalarga qodirdir. Bu esa oilaning ham, o'z Vatanining shon-shuhratini oshiradi... O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmatini, or-nomusi va shon-sharafi uning o'ta mehribonligi va sof vijdonliligiga asoslangandir. Biz bundan keyin ham o'zbeklarning milliy g'ururini ma'naviy yuksaltiramiz, shu bilan birga umumiy Vatanimizda biz bilan birga yashovchi va O'zbekiston Respublikasiga sadoqatli bo'lgan boshqa barcha xalqlar bilan birodarlikka intilamiz"¹ – deb ta'kidlagan edi.

Shunday ekan, respublikamizda kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun, uzluksiz ta'lim tizimiga, shu jumladan pedagogika kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida ham milliy g'ururni shakllantirishga yordam beradigan shart-sharoitlarni yaratish lozim. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirish ularni barkamol shaxs sifatida namoyon etishda ham zarur.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirish va rivojlantirish nafaqat pedagogik-psixologik muammo, balki ijtimoiy ahamiyatga molikdir. O'quvchilik davrida milliy g'ururni shakllantirish mustaqillik va o'z-o'zini boshqarish hamda rivojlanishiga yordam beradi. Shu bois, bo'lajak kichik mutaxassisda milliy g'ururni tarbiyalashga oid sifatarni shakllantirish jarayonining pedagogik asoslarini ishlab chiqilganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida milliy-ma'naviy qadriyatlar va ularning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati, ularga nisbatan tarixiy yondashuv, mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni qayta tiklash yo'lida olib borilgan amaliy harakatlar mazmuni hamda shaxsda milliy g'urur tuyg'ularining namoyon bo'lishi kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

A.Azizxo'jayev, A.Aliyev, B.Aminov, T.Rasulov, S.Atamuratov, Sh.Baxranov, A.Jalolov, N.Jo'rayev, J.Tulenov, Z.G'ofurov, O.Sharofiddinov,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: "O'zbekiston", 1998 y., 63-64 betlar.

K.Yusupov, E.Yusupov va O'.Yusupov larning ishlarida shaxs kamoloti, unda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari, shaxsda milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining shakllanishi, bu jarayonda milliy ma'naviyatning o'rni va roli tahlil etilgan. Tadqiqot bo'yicha tahlil etilgan pedagogika sohasidagi adabiyotlar hamda ilmiy manbalarning ko'rsatishicha yosh avlodga milliy g'urur sifatlarini shakllantirish muammosini turli qirralari pedagog olimlardan shu jumladan, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining o'quvchilarida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda milliy-ma'naviy meros, xususan, xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odat, marosim va an'analar, shuningdek, milliy tarbiya o'ziga xos ta'sirchan kuchga ega. M.Abrorov, S.Bulatov, O.Bo'riyev, I.Jabborov, T.Javliyev, M.Inomova, Ye.Ovlyakuliyev, N.Ortiqov, Q.Tohir, O.Usmonov, A.Madrahimov, I.Xayrullayev, M.Quronov, D.Ro'ziyevlarning ishlarida xalq og'zaki ijodi namunalari, milliy urf-odat, marosim va an'analarning mohiyati, ularda ilgari surilgan g'oyalar, milliy madaniyat asoslari hamda ularning shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni va roli ochib berilgan.

Respublikamizda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi rivojlanishining nazariy-metodik va ijtimoiy-pedagogik asoslarini R.Jo'rayev, U.Inoyatov, N.Musimov, X.Rashidov, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari kasbiy mahoratini oshirishning tashkiliy-pedagogik asoslari S.Rajabov, uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishning pedagogik asoslarini N.Tayloqov, maxsus fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilim va malakalarni shakllantirishning metodik asoslari Q.Abdullayeva, kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy ishlarga, tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini N.O'rinovalar o'rganishgan.

Muammoning dolzarbligini asoslash, tadqiqot mavzusini "Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari", - deb ifoda etishga yordam beradi.

Tadqiqot muammosi pedagogika kolleji o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirish sifatlarini shakllantirish bo'yicha ish uslublari, shart-sharoitlari,

shakl va mazmunini aniqlashni talab qiladi.

Tadqiqot maqsadi: pedagogika kolleji o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirish pedagogik muammo ekanligini aniqlash va unga uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish:

- Tadqiqotning vazifalari;
- O'rganilayotgan muammoga oid pedagogik-psixologik ilmiy-metodik adabiyotlarning hozirgi holatini tahlil etib, muammolarni aniqlash;
- O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishda oilaning o'rmini yoritish;
- O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy shart-sharoitlarni aniqlash;
- O'quvchilarda dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonida milliy g'ururni tarbiyalash samaradorligini oshirish yo'llarini belgilash;
- O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha o'qituvchilar va o'quvchilar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti: pedagogika kollejidagi ta'lim jarayoni, o'qituvchilar (o'qitish) faoliyati va o'quvchilar (o'qish) o'quv faoliyatlarida milliy g'urur sifatlarini shakllantirish.

Tadqiqot metodlari:

- O'rganilayotgan muammo bo'yicha falsafiy, psixologik, pedagogik, ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish, tahlil etish;
- Dars va darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishning turli shakllarini pedagogik kuzatish, kollej o'quvchilari, o'qituvchilari, kollej ma'muriyati vakillari bilan pedagogik suhbatlar, anketa savolnomalar o'tkazish;
- Pedagogik eksprement;
- Tadqiqot materiallarini matematik va statistik tahlil qilish metodidan iborat.

Himoyaga olib chiqilayotgan holatlar:

- ❖ Pedagogika kolleji o'quvchilarida milliy g'urur sifatlarini shakllantirishga oid pedagogik-psixologik adabiyotlarning tahlil etilganligi va muammoarning aniqlanganligi;

❖ O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishga ta'sir etuvchi shart-sharoitlarning aniqlanganligi;

❖ O'quvchilarda dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonida milliy g'ururni tarbiyalashning samaradorligini oshirish yo'llarini belgilanligi;

❖ O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha o'qituvchilar va o'quvchilar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilganligi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar va xulosalar "Kadrlar tayyorlashg milliy dasturi" talablarini amalga oshirishga xizmat qiladi; kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirishga imkon beradi; kasb-hunar kolleji o'quvchilarini milliy g'ururini shakllantirishning shakl va metodlari mazmunini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Tadqiqot ishida quyidagi ilmiy farazlar belgilab olindi; Pedagogika yo'nalishidagi kollej o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirish mumkin, agarda:

○ O'rganilayotgan mavzuga oid pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik adabiyotlarning hozirgi holati tahlil etilsa;

○ O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishda oilaning o'rni yoritilsa;

○ O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar aniqlansa;

○ O'quvchilarda dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonida milliy g'ururni tarbiyalashning samaradorligini oshirish yo'llari belgilansa;

○ O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilsa kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirish samarali bo'ladi.

Tadqiqotning metodologik asosini – O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy g'ururni

shakllantirishga oid fikr-muohazalari, ko'rsatmalari, mutafakkirlarning milliy g'urur to'risidagi g'oyalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazining me'yoriy yo'riqnomalari, ilg'or pedagogik tajribalari, DTS, tegishli me'yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 bob, besh paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. KASB-HUNAR KOLLEJI O'QUVCHILARIDA MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirish pedagogik muammo sifatida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari to'g'risida to'xtalib, uning to'rtta asosiy negizga asoslanishini ko'rsatib o'tgan edi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi; va
- vatanparvarlik.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkimol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi.

O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi — bu qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz, ishonchli kompasdir. O'zbekistonga, uning yeri, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, ulkaning tarixi, madaniyati, an'analarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qaygurish ko'p millatli o'zbek jamiyatining mudim

jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi.

Xalqning vatanparvarlik his-tuyg'ulari, uning ozodlikka va baxt-saodatga intilishi dar bir o'zbekistonlik uchun muqaddas mazmun kasb etayotgan mustaqil O'zbekistonning yangi davlat ramzlarida o'z ifodasini topmoqda!

Davlatimiz ramzlari — bayroq, tamg'a, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishparini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash — o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. O'z mamlakati bilan faxrlanadigan inson juda ko'p narsalarga qodirdir. Bu esa oilaning ham, o'z Vatanining ham shon-shuhratini oshiradi.

O'z oilasi, nasl-nasabi bilan faxrlanish vatanparvarlik tuyg'usiga chuqur hamodangdir. Bu, eng avvalo, oilaviy an'analarni avaylab saqlash va boyitish, otabobolarning muborak nomlariga dog' tushirmaslikka intilish, o'z mehnati, bilimlari bilan nasl-nasab obro'sini mustahkamlash, odamlarning hurmat-ehtiromiga sazovor bo'lish istagidir.

Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik o'zining qudratli ildizlari bilan o'z oilasining, avlod-ajdodlarning nomus-origa, chuqur ehtiromga, insonning shaxsiy vijdoniga, burchga va o'z so'ziga sodiqlikka borib taqaladi. Kishilarimizning vatanparvarligi hamma vaqt sevimli xalqning shon-sharafi, qadr-qimmatini, madaniyati va an'analari ehtiyotkorlik bilan munosabatda o'z ifodasini topib keldi, Ba'zida hayotda qiyin vaziyatlar bo'ladi, ba'zan adolatsizlik va ranj-alam ezadi, lekin jahl ustida ona-Vatanni, vatandopsharni haqorat qilish — bu borib turgan shakkoklikdir. Buni xalq aslo kechirmaydi.

O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmatini, or-nomusi va shon-sharafi uning o'ta mehribonligi va sof vijdonliligiga asoslangandir. Biz bundan keyin ham o'zbeklarning milliy g'ururini ma'naviy yuksaltiramiz, shu bilan birga umumiy Vatanimizda biz bilan birga yashovchi va O'zbekiston Respublikasiga sadoqatli bo'lgan boshqa barcha xalqlar bilan birodarlikka intilamiz.

Milliy tuyg'u inson uchun tabiiydir, chunki u ota-onalardan meros qilib olingan va bola o'z ota-onasiga, butun dunyoga aytgan birinchi so'zida

ifodalanadi. O'z xalqiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanning jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas. Vatanparvarlik, fuqarolar yakdilligi - yosh va mustaqil O'zbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o'zgartirish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishda yordam beradi.

O'zini o'zbek millatining vakiliman deb hisoblaydigan har bir inson avlod-ajdodlarimizdan qolgan takrorlanmas boy moddiy va ma'naviy merosdan, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan buyuk hissalaridan, ularning chinakam vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, Vatan ozodligi yo'lida ko'rsatgan jasorat va mardliklaridan faxrlanadi hamda ularning an'alarini davom ettirish ruhiyatiga ega bo'ladi. Bugungi kunda Vatanimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi har bir o'zbek millati vakilining milliy g'ypyrini oshirdi, uning qaddini ko'tardi va unda o'z xalqi, ona zamini, avlod-ajdodlar oldida millat manfaatlarini himoya qilishdagi mas'uliyatini his qilish ruhiyatini shakllantirmoqda. O'zbek millatining o'z Vatani mustaqilligidan faxrlanish tuyg'usining o'sib borishi yangi jamiyat qurish jarayonida vujudga kelgan muammolarni vazminlik bilan hal etish va O'zbekistonning jahonda obru-e'tiborini mustahkamlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Chunki milliy g'urur faqat faxrlanish ruhiyati bo'lib qolmay, millat taqdiri, kelajagi yulidagi mas'ulligini his eta bilish salohiyati hamdir.

Mustaqillik kishilar milliy g'ururini oshirib, uni xalq, Vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi mas'uliyatni his qilishdek mazmun bilan boyitmoqda. Bunday sharoitda o'zbek xalqining mustaqilligidan faxrlanish, jamiyatda ozod, farovon va erkin hayotni yaratish yo'lida mehnat qilish, faollik ko'rsatish, jahon hamjamiyati tomonidan ilm-fan, texnika yutuqlari, ilg'or texnologiyalardan foydalanish milliy iftixor tuyg'usini shakllantiradigan, rivojlantiradigan omillardir. Bu esa, o'z navbatida, ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yosh avlodning kuchi, salohiyati, bunyodkorlik faoliyatini belgilaydi, ularni sog'lom milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish uchun tinmay izlanishga safarbar etadi. Bu safarbarlik va

milliy iftixorni o'sib kelayotgan yosh avlodda qaror toptirish uchun oliy ta'lim tizimi katta imkoniyatlarga ega. Chunki bugungi kunda ushbu maskanlarda o'zbek xalqining o'tmishi, ajdodlarning boy ma'naviy merosi, bugungi bunyodkorlik faoliyati keng ko'lamda o'rgatilmoqda.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosatini insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Modomiki, davlat barkamol shaxsni tarbiyalashni talab etar ekan, bu ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy meros, milliy iftixorning ajdodlar siyosida namoyon bo'lganligini anglab yetishi, bu tuyg'uni o'zida singdira olishi, jamiyatda bu yo'lda keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish kerak.

Zero, "Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurashishi mumkin".

Milliy g'urur masalasi istibdod davrida barcha millatlarda, shu jumladan, o'zbek millatida, eng kamsitilgan va ongli ravishda hukmron mafkura tomonidan zaiflashtirilgan milliy his edi. Chunki, milliy g'urning o'sishi, mustahkamlanishi istibdod tuzumining millatlarni jadallik bilan yaqinlashtirish va qo'shib yuborish siyosatiga zid edi. Xolbuki, millatning kuchi, salohiyati, bunyodkorlik faoliyati ko'p jihatdan milliy g'ururra bog'liq. O'z millatini tanigan, unga mansub ekanligidan mag'rur kishigina bu mag'rurlik hissini saqlashga, mustaxkamlashga va o'z millatining pastlashib, qoloqlik girdobida qolib ketmasligi uchun kurashdek olijanob ishga o'zini doim safarbar etadi.

Afsuski, chorakam bir asr davom etgan istibdodlik tizimining targ'iboti va tashviqoti kishilarga salbiy ta'sir etmasdan iloji yo'q edi. Shuning oqibatida milliy g'urur bo'shashdi, kishilardagi milliy g'urur tushunchasi ko'p jihatdan o'z sifatleri va qirralarini yo'qotdi. Milliy g'urni mustahkamlash va boyitish uchun, birinchidan, o'z tariximizni, xalkimizning insoniyat oldidagi xizmatlarini yaxshi

bilishimiz; ikkinchidan, hozirgi hayotimizda yuksak milliy g'ururra ega bo'lishga hakli ekanimizni kundalik sifatli mehnat, jahon andozalari va mezonlariga javob bera oladigan xilma-xil mahsulot ishlab chiqarishimiz, mazmunli ma'naviy hayotimiz bilan tasdiqlab borishimiz zarur. Milliy g'urur o'z millatini boshqa millatlarga qarshi qo'yishni inkor etadi. Boshqa millatlarning barcha yutuq va ilg'or tomonlarini qabul qilib olib, milliy asosda o'zlashtirish milliy g'urning tarkibiy qismidir. Buningsiz millatning milliy g'ururi qashshoqlashadi.

Abdurauf Abdurahmon o'g'li Fitrat ham o'z Vatanini sevadi, u bilan faxrlanadi, uni har narsadan muqaddas tutadi va yoshlarni Vatanni sevishga, ardoqlashga chorlaydi. U "Sayha" to'plamidagi she'rlaridan birida shunday yozadi:

Vatanni ziyorat qilmoqqa

Erta tongda kel.

Hay-hay qanday Vatan bu!

U mening sajdagohim,

Osoyishim, izzatim, sharafim,

Ham ka'bam, ham qalbim,

Ham chamanimdir.

Bu misralar vatanparvarlikning yuksak namunasi bo'lib, yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda alohida qimmatga ega. Muallif Vatanning ravnaq topishi uchun yoshlarni dunyoviy ilmlarni egallashga da'vat etadi, bu yo'lda o'zi fidoyilik namunasini ko'rsatadi.

Fitratning fikricha, har bir inson hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun u sog'lom fikrli va pok axloqli bo'lmog'i kerak. Har millat o'z kelajagini o'ylar ekan, yoshlarga e'tiborini qaratmog'i, ularni muntazam jismoniy, aqliy, ruhiy tomonidan chiniqtirmog'i lozim.

Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li bolalarga atab yozgan asarlarida Vatanga sadoqat va mehr-muhabbat, insoniylik, to'g'rilik, mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirishga e'tibor bergan. Uning fikricha, Vatanni sevish, uning gullab yashashi uchun mehnat qilish va ulg'ayish zarur. Shu sababli alloma bolalar qalbiga Vatan go'zalligini singdirib, ularni Vatan oldidagi fuqarolik burchini

yuksak darajada bajaradigan kishilar qilib kamol toptirishni, Vatan o'z farzandlaridan najot kutib turganligini ta'kidlaydi.

Milliy g'urur masalalari, istibdod tuzumining ta'sirida, «qaltis» mavzular qatoridan joy olgan edi. Vaxolanki, milliy g'ururi yo'q, kishi o'z millatining va boshqa millatlarning hayotiga, o'tmishiga, ularning insoniyat oldidagi xizmatlariga qiziqmaydi va shu sababli yo o'z millatini, yo boshqa millatlarni hurmat qilmaydi. U — «umuman inson» va shunday boshboshdoqlik sababli o'z bilimi, salohiyati va kuch-quvvatini sochib, taraqqiyotga xizmat qilolmaydi.

Mustaqil O'zbekistonda fuqarolarimizning milliy g'yrurini ko'tarish, boyitish va mustahkamlash - eng dolzarb, murakkab va bajarilishi zarur vazifalardan biridir.

O.Musurmonova "Oila ma'naviyati milliy g'urur" nomli asarida o'zbek oilasi ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, bola tarbiyasida alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan. Muallif ta'kidlaganidek, "Oila insonlarning tabiiy-biologik, fiziologik, iqtisodiy, huquqiy-qonuniy, ma'naviy-axloqiy aloqa munosabatlari asosida qurilgan ijtimoiy birlikdan iboratdir. ... U jamiyatning ajralmas bir bo'lagidir. ... Oila tarbiyasi birinchi navbatda, ota va ona zimmasiga tushadi. Bolalar tarbiyasiga asosiy ta'sirchan kuch-qudrat, bu onadir. Bu o'zbek oilalari tarixidan ma'lum bo'lgan haqiqat va ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan an'anadir. Oila va uning mohiyati, oilaning har tomonlama jipsligini ta'minlash shart-sharoitlari, oila tarbiyasi-milliy iftixordir".

Muallif o'zining "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" nomli qo'llanmasida uzoq yillar davomida maktablarda olib borgan kuzatish va tajribalariga suyangan holda umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot va turmush odobi fanlarini o'qitish jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash usullarini bayon etadi.

Qo'llanmada shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, ma'naviy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida foydalanish, dars mohiyatini yoritish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan. Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirishda amal qilish lozim bo'lgan

pedagogik shartlar sanab o'tilgan. Qo'llanmaning muhim jihati shundaki, muallif unda ma'naviy madaniyatni shakllantirish yo'llarini aniq misollarda ifodalay olgan.

M.Quronov O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalari, shu jumladan, ta'lim tizimida ham islohotlarning amalga oshirilayotganligi, mamlakatimizda ta'limni isloh qilish va kadrlar tayyorlash tizimi pedagogika fani oldiga murakkab vazifalarni qo'yayotganligi, ta'limning barcha bo'g'inlarida o'qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni, metodlariga bog'liq bo'lgan muammolarni bajarishga kirishilganligi haqida o'z munosabatini bildirib, millatlararo ahillikka milliy madaniyat va o'zbekona vatanparvarlik, g'urur va iftixor tuyg'ularini umumfuqaroviy darajada rivojlantirish orqali erishish mumkinligi, har bir xalqning ma'naviy va ma'rifiy gullab yashnashi - umuminsoniy kamolot, uyg'unlikni hosil qilishi, o'quvchilarning O'zbekiston vatanparvarligi, milliy g'ururi, millatlararo muloqot madaniyati, milliy odobi, milliy mafkuraviy ongilligi kabi fazilatlar, ularni qaror toptirish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Bu o'rinda muallif quyidagilarni yozadi: "Milliylik-qadriyatdir. Milliylikni o'zida mujassamlantira olgan har bir inson - milliy donishmandlik vakili, u otabobolaridan meros qolgan o'z milliy qadriyatlariga chuqur hurmat bilan qaraydi, jon dili bilan targ'ibot qiladi. Milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, hurmatsizlikni ko'rganda ranjiydi, himoya qiladi. ...

Psixologiya fanlari doktori, professor Ergash G'oziyev o'zining "Milliy mafkura va milliy o'zligini anglash" maqolasida o'zbek millatining g'ururi, milliy iftixori quyidagilarda yaqqol namoyon bo'lishi mumkin:

—ona diyorumizning ko'p ming yillik buyuk tarixiy o'tmishida;

—uning Sharq ma'rifatparvarligi, jahon sivilizasiyasiga qo'shgan beqiyos hissasida, egallagan mavqyesida;

—jahon tan olgan fan, din, adabiyot, san'at daholarida, davlat va jamiyat arboblariida;

—bebaho madaniyat, san'at, me'morchilik yodgorliklarida;

—o'zbek xalqining ona tiliga, milliy urf-odatlariga, an'analariga, rasm-rusumlariga sodiqligida;

—o'zbeklarning islom madaniyatiga mansubligida;

—mamlakatning tabiatida, iqtisodiy qudratida;

—ko'p millatli xalqning istiqloлга, buyuk kelajakka ishonch tuyg'usida;

—fuqarolarning fan va texnika, madaniyat taraqqiyotiga ishtiyoqida, intilishida;

—xalqaro hamjamiyat tan olishida va nufuzi ortib borishida;

—tinchlik barqarorligida, o'z istiqloл va taraqqiyot yo'lini sobitqadamlik bilan olib borayotganligida va hokazo.

Milliy istiqloл mafkurasining o'z uzviy tarkibiy qismini boy madaniy merosimiz tashkil qiladi. Ma'naviyatimiz xazinasi durdonalaridan bahramand bo'lgan sog'lom yosh avlod ruhan tetik, aqlan donishmand, jismonan yengilmas barkamol inson sifatida shakllanadi.

Xuddi shu boisdan yoshlarda milliy his-tuyg'u, milliy yurish-turish, milliy ta'b, milliy xarakter, milliy qiyofa xususiyatlarini tarkib toptirish milliy o'zligini anglashni tezlashtiradi. Ularni o'zbek xalqining milliy an'analari, urf-odatlari, rasm-rusumlaridan boxabar qilib borish muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Mustakillik, istiqloл mafkurasini vatan, xalq manfaatiga sadoqat, milliy ma'naviyatga, ilm-fan va madaniyat yuksalishiga muhabbat, shaxs iste'dodi, faolligi, erkiga zo'r hurmat, boshqa xalqlarga dustlik, birodarlik tuyg'usiga samimiyatni shakllantirish lozim.

Tadqiqotchi Bashorat Hakimova o'zining "O'quvchilarni milliy g'urur ruhida tarbiyalashda o'qituvchilarni tayyorlash" maqolasida milliy g'ururni shakllantirishda bilim olish, ma'naviy merosni egallash, xalq amaliy san'ati, milliy urf-odatlar, iqtisod, din, kelajakka ishonch, umuminsoniy qadriyatlar, istiqlolni mustahkamlash masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Muallif ushbu yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashga tayyorlash bilan chegaralanib qolmay, balki O'zbekiston taraqqiyotining poydevori hisoblangan –

barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan.

Taniqli olimlar Abduqahhor Ibragimov, Xayriddin Sultonov, Narzulla Jo'rayevlar o'zlarining "Vatan tuyg'usi" deb nomlangan kitobida "g'urur", "iftixor" masalalariga alohida to'xtalib g'ururning va iftixorning shaxs hayotidagi o'rniga yetarlicha e'tibor bergan. Shuningdek, faylasuf olimlar Abdulhafiz Jalolov va Qo'chqor Xonazarov umumiy tahriri ostadi yaratilgan "Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati"da milliy g'urur masalalariga o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tgan.

Falsafa fanlari nomzodi, dosent Gulmira Tulenova "Milliy ong va milliy iftixor o'sishining tarbiyaviy ahamiyati" mavzusidagi ilmiy maqolasida "Milliy ong, milliy g'ururimiz kundan-kunga o'sib yuksalishi mazkur sohada hych qanday muammo yo'q deganini bildirmaydi, albatta. Xalqimiz yosh avlodimiz milliy ongini yanada rivojlantirib hozirgi davr talabiga javob beradigan holatga keltirish uchun hali ko'p ishlarni amalga oshirishimiz zarur. Shularning ichida eng katta e'tiborni talab qiladigan muammo – xalqimiz, yosh avlodimizning huquqiy ongini yanada o'stirishdir. Qonunga xizmat qilish, unga bo'ysunish, jamiyatimizdagi barcha fuqarolar uchun majburiydir. Afsuski bugungi kunda qonunni cheklab o'tishga harakat qiladiganlar, uni poymol qiladigan shaxslardan jamiyatimiz xoli bo'lgani yo'q", - deb yozadi.

Demak, yoshlarda shu jumladan kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy g'ururni shakllantirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri. Bu uchun kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirish lozim. Vatanparvarlik, ilm olish, mustaqillikni mustahkamlash, xalq amaliy san'atini egallash, muqaddas dinimizga bo'lgan e'zozni hurmatlash, ma'naviy merosimizni mustahkamlash hamda rivojlantirish, iqtisod va tejamkorlikka erishish kabilar yoshlarda milliy g'ururni tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi. Bunda har bir o'quvchi quyidagi yo'nalish bo'yicha tushunchalar beriladi va mashg'ulotlar o'tkaziladi:

Vatanparvarlik – bu ona zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevish, e'zozlash,

o'z ona vatani uchun jonkuyarlik qilish, uning xalqni sevish, o'lka tabiatini sevish, xalqimizning ko'hna tarixini bilish, o'z xalqini milliy merosini, madaniyatini, san'ati va memorchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, vatan oldida mas'uliyatli bo'lish, foyda keltirish, xalqni o'ylash va unga hamdard bo'lish, vatanidan, millatidan, tilidan, bayroq, madhiya, tamg'asidan, an'ana, qadriyat, urf-odat, milliy g'ururidan foydalanish.

Bilim olish — ham milliy g'ururni shakllantirishning yo'nalishlaridan biridir. Chunki inson kamolotida bilim egallash ulkan vazifalardan biri hisoblanadi. Bilim olgan kishi har tomonlama rivojlangan, odobli, axloqli, kamtarin, komil inson bo'ladi. Har qaysi insonning, fuqarolarning bilim darajasi jahon talablari darajasida, ya'ni fan-texnikaga, bozor iqtisodiyoti madaniyatiga javob beradigan holda bo'lishi kerak, o'sha komil inson uchun uning olgan bilimi hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarida yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarida rahbar, qayguli damlarida madadkor bo'ladi. Bilim insonni aql-idrokli, bilimdon, hunarmand, irodali, e'tiqodli qiladi.

Ma'naviy merosni egallash — xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Inson erkinlikda yashashga intiladi. Bunday kishilar kelajakka, hurriyatga, ozodlikka ishonch tuyg'ulari bilan munosabatda bo'ladilar. Ajdodlardan avlodlarga qolgan ilmiy, adabiy, madaniy boylikning rivojlantirilishi, milliy qadriyatlarning tiklanishi, o'zbek davlatchililigi asoschilarining nomlarini abadiylashtirish, tarixiy obidalarning ta'mirlanishi, o'zbek ma'naviyati va madaniyati vujudga keltirgan allomalarimizning asarlarini muttasil o'rganish.

Xalq amaliy san'ati — jahonga go'zallik va joziba bag'ishlaydi. Unda nafosat tarbiyasining asosiy manbalari, go'zallik tuyg'ulari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, jonajon tabiat go'zalliklarini va boyliklarini to'g'ri tushunish va qadrlash, me'morchilikni, tarixiy obidalarni e'zozlash, me'rosimiz boyligiga hurmat bilan qarash, asrab-avaylash, g'ururli kishi vazifasidir.

Milliy urf-odatlar to'y va ma'rakalarda, qarindosh-urug'larga, yoru do'stiga yordam berish, hamdard bo'lish, mehmon kutish va kuzatishda rasm-rusmlarimizga amal qilish ota-onani hurmat qilish, milliy kiyinish, milliy taom

tayyorlash, dasturxon bezashda, nikoh marosimlarida, sunnat to'ylarda, g'am berishda, yor-yorlar, laparlar aytishda, milliy laparlarimizda, bozor va ozodalikda, uvol-savobda, diyonatda, xalollikda, poklik va barcha tabiat boyligini e'zozlashda, mehnatsevarlikda, milliy musiqada, Vatanga, madaniyatga, millat tarixiga, xalqqa munosabatida namoyon bo'ladi.

Iqtisod- moddiy va ma'naviy hayotni, xalqning turmushini bildiradi. Har bir kishiga xo'jalikda va oilada tejamkor bo'lish, mol-mulk qadriga yetishda, isrofrarchilikka yo'l qo'ymaslikka, mehnat evaziga orttirilgan barcha narsalarga tejam va jonkuyarlik bilan munosabatda bo'lishni, kelajakda haqiqiy uy egasi, chinakam xo'jayin bo'lishida yordam beradi. Davlat mol-mulkini ko'z qorachig'iday asrash, haol, pok, to'g'ri bo'lish kabilarni o'z ichiga oladi.

Din — ezgulik, yaxshilikka erishish bilan birga, adolat bilan muomila etishga da'vat etadi. Kishilarni e'tiqod, to'g'ri va sof bo'lishga, yaxshilik qilib bir-birining muhabbatini qozonishga chorlaydi. U imonga, ota-onaga, qarindoshlarga, yetimlarga, kambag'allarga, odamlarga yaxshilikni ravo ko'rishga chorlaydi. Din rostguylikka, halollikka, poklikka, insoflilikka, haqqguylikka, or-nomuslilikka, komillikka, mo'minlikka, shariatga, muomalaga o'rgatadi.

Kelajakka ishonch — O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, rivojlantirish, vazifasiga vijdonan mas'uliyat bilan qarashida hamda O'zbekistonni dunyo kashfiyotlarida, jahon sivilizasiyasini egallashida, uzoqni mo'ljallab, istiqbol taraqqiyotini ko'zlab ish tutishida namoyon bo'ladi.

Umuminsoniy qadriyatlar - insonlarda axloq va ma'naviyatning ustunligini e'tirof etishida, ularni turli ijtimoiy-iqtisodiy, tuzumli mamlakatlar hamkorligini umumiy yo'nalishini hosil etishda va dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy ishlarni tushunishida, madaniy-ma'naviy, ilmiy-texnikaviy, harbiy sohaning, aloqaning mamlakatlarda va xalqlarda rivojlantirishda ko'rinadi.

Istiqlolni mustahkamlash — O'zbekistonning istiqlolini mustahkamlashda har qaysi inson moddiy, ma'naviy boyliklarini asrab-avaylaydi. Ularning yanada rivojlanishi uchun Vatanining mudofaa qudratini mustahkamlashga, uning xalqaro obru-e'tiborining oshishiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'ladi.

1.2. O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishda oilaning o'rni

Insonning baxt-saodati, kelajak hayotining yaxshi yoki yomon bo'lishi davlat mustaqilligini mustahkamlash bilan bir qatorda turli millatlar, elatlar, sinflar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi hamkorlik, hamjihatlik munosabatlarning takomillashishi bilan dam uzviy bog'liqdir. Bu, ayniqsa, ko'pmillatli davlatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Hozir mamlakatimizda yuzdan ziyod millatlar va elatlar yashaydi. 30-yillarda bizning diyorumizda oltmishga yaqin millat va elat vakillari yashagan bo'lsa, hozir bu ko'rsatkich qariyb ikki baravar ko'tarilgan. Bu esa o'z navbatida milliy va millatlararo munosabatlarga oid bo'lgan barcha masalalarni falsafiy jihatdan chuqur va atroflicha ilmiy tahlil etishni talab qilmoqda.

Ma'lumki, millat ijtimoiy-etnik birlikning murakkab shakllari jumlasiga kiradi. Millat, asosan kishilarning tarixan tarkib topgan birligi bo'lib, iqtisodiy hayot, til, hudud va madaniyatning, milliy o'zligini anglash va milliy psixologik xususiyatlarning birligi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy turmush birligi asosida til va hudud birligining paydo bo'lishi millatning asosiy belgilaridir. Millatning til, hudud, iqtisodiy turmush va madaniyat birligi ulardan oldingi formasiyalarda vujudga kelgan urug' qabila va elatning birligidan tubdan farq qiladi. Millatning iqtisodiy va siyosiy birlashishi elatlarning yozma adabiy tili va og'zaki ijodining rivojlanishi asosida yagona milliy tilning paydo bo'lishiga olib keladi. Millatning tarixiy taraqqiyot xususiyatlari, uning iqtisodiy tuzumi, odat va an'analari, yashash muhiti uning ma'naviy qiyofasiga ta'sir etadi. U yoki bu millatga mansub bo'lgan kishilarning o'ziga xos milliy xususiyati va psixologiyasi, milliy tili va madaniyati bo'ladi. Til- millatning eng muhim belgilaridan biridir.

Kishilarning milliy birligini davlat yoki irqiy birliklar bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Millatlar bir irqdan yoki turli irqlardan tashkil topishi va aksincha, millatlar bir irqda mansub bo'lishi, ba'zi millatlar turli dinga, yoki bir necha millatlar bir dinga e'tiqod qilishlari mumkin. Irqlarga bo'linish — kishilarning gavda tuzilishi, qiyofasi, rang-ruyi va boshqa alomatlariga qarab bo'linishdir. Mil-

latlar esa yuqorida eslatib o'tilgan ijtimoiy-etnik belgilar bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bir tomondan, irqiy, qabilaviy, diniy, davlat birligi millatni ta'riflashda zarur belgi bo'lmaydi. Ikkinchi tomondan, milliy belgi bilan sinfiy belgi o'rtasida umumiylik va farqlar borligini e'tiborga olishga to'g'ri keladi. Ularning har ikkalasiga xos bo'lgan umumiylik shundaki, millatlar ham, sinflar ham tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida yuzaga kelgan hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisalardir. Millat bilan sinf o'rtasida, ba'zi farqlar ham mavjud. «Millat» tushunchasi va mazmuniga ko'ra «sinf» tushunchasidan ancha keng. Muayyan sinfdan tashkil topmagan millat yo'q. Har qanday millat sinflardan iborat bo'ladi. Millat ijtimoiy taraqqiyotning sinfdan keyingi mahsulidir. Demak, sinflarning mavjudligi haqida gapirilganda, millatlarning mavjudligini, millatlarning mavjudligi haqida gapirganda sinflarning mavjudligini tushunish yaramaydi.

Dunyoning turli mamlakatlarida hozir o'zining turmush tarzi, tili, tarixi, madaniyati, urf-odatleri, rivojlanish darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan qariyb ikki ming har xil xalqlar va millatlar yashamoqda. Ularning qariyb 1600 tasi Osiyo va Afrika mamlakatlarida, qariyb 100 tasi rivojlangan kapitalistam mamlakatlarda, qariyb 250 tasi sobiq socialistik mamlakatlarda yashaydi. Mustaqil davlatlar soni hozir qariyb 390 tani tashkil etadi. Yer yuzida 100 milliondan ortiq kishidan tashkil topgan millatlar ham, shuningdek, ming va hatto yuz kishidan iborat bo'lgan qabilalar va etnik guruhlar borligini ham aytmasdan o'tib bo'lmaydi. Akademik D. S. Lixachevning ma'lumotlariga qaraganda, sobiq SSSR hududida katta-kichik 150 millat va elat yashaydi.

Har bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qat'i nazar, eng avvalo, o'zining milliy ongi va psixologiyasida ifodalanadi.

Ijtimoiy ongning barcha shakllari, siyosiy mafkura, falsafiy, huquqiy qarashlar, san'at-fan, axloqiy normalar, shu jumladan milliy qadr-qimmat normalari ham ijtimoiy borliq negizida vujudga kelib, uning ayrim shakllari ijtimoiy voqyelikning muayyan bosqichlarida nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan holda oldingi qatorga chiqib rivoj topadi va kishilar ruhiy, ma'naviy hayotida

chuqur o'rin egallaydi. Muayyan jamiyatda istiqomat qiluvchi har bir millatning ma'naviy qiyofasi o'sha jamiyatning moddiy, ijtimoiy-tarixiy sharoitlariga qarab o'zgarib boradi. Millatning ruhiy, ma'naviy qiyofasi mavjud ijtimoiy ong shakllarida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy ongning progressiv shakllari har bir millat kishilarining ruhiy, ma'naviy qiyofasi asta-sekinlik bilan o'zgarib borishiga olib keladi. Mana shu o'zgarish jarayonlari tarixiy bosqichda ham progressiv, ham regressiv bo'lishi mumkin. Bunday tarzda ijtimoiy ong shakllarining o'zgarishlari o'z navbatida ko'p millatli davlatlar negizida turgan xalqlarning milliy o'zligini anglash jarayoniga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi muqarrardir.

Milliy ong ijtimoiy ong shakllari singari ma'lum davrlarda o'zining nisbiy mustaqilligi tufayli jamiyat asosini tashkil etuvchi - bazis va ustqurmaning mohiyatini tubdan o'zgartirib yuborishga faol ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunga misol tariqasida hozirgi kunlar sobiq ittifoqdosh respublikalar hududida ro'y berayotgan keskin o'zgarishlar jarayonini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Ularning hayotida shiddat bilan ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy o'zgarishlar qanchalnk inqirozli tus olmasin, xalq ommasi ongining, ayniqsa milliy ongning yangicha shakllanishi anchagina ijobiy xarakter tus olmokda. 1985 yilda qayta qurish va oshkoralik jarayonlarining boshlanishi tufayligina milliy ongimizni sog'lom tafakkur asosida shakllantirishga yo'l ochildi. Yangicha milliy ongning, milliy g'ururning rivojlanishi ayniqsa Boltiqbo'yi respublikalari, ya'ni Litva, Latviya, Estoniya, shuningdek, Ukraina va Moldova, Kavkaz-orti jumhuriyatlari xalqlari hayotida birmuncha tezroq yuzaga keldi. Bu esa asta-sekin boshqa millat va elatlar ongiga ta'sir etib, endilikda ular ham o'z milliy qadr-qimmatlarini, milliy g'ururini ma'naviy yuksaltirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirmoqdalar.

Shu kunlarda barcha sog'lom millat vakillari jamiyatimizda hukm surayotgan inqirozli ahvoldan qanday qilib chiqib ketish yo'llarini o'ylamoqdalar. Ularning tashabbusi bilan yangi-yangi mulohazalar, takliflar, talablar o'rta qo'yilmoqdaki, bular sekinlik bilan bo'lsa ham o'z ijobiy natijalarini bermokda.

Milliy ong va uning shakllanishi, eng avvalo, milliy uyg'onish zamirida boshlanishi tabiiydir. Hozirda milliy uyg'onish, davr taqozosiga ko'ra,

taraqqiyotning obyektiv ijtimoiy voqyeligiga aylanmoqda. Chunki kishilarning dunyoqarashi hayotiy xulosalar, bir-birlariga munosabatlar, iroda va xohishlar, milliy turmush tarzlari, milliy rasm-rusumlar, odat va an'analar tufayli shakllanadi va rivojlanadi. Shunday ekan, milliy turmush tarzi va madaniyati ijtimoiy voqyelikning tabiiy ifodalanish shaklidir. Milliy ong va uni anglash har bir kishidan o'zining qaysi millatga mansubligi, milliy tarixi, madaniyati va merosi, urf-odatlarini, milliy tili mohiyatini to'g'ri, har taraflama chuqur bilishni talab etadi. Milliylikni tan olish — millatga mansub kishilarning ijtimoiy-etnik barqarorligini tan olish demakdir. Milliylikda insoniy va umuminsoniy qadriyatlar muayyan qiyofa va shakl kasb etgan bo'ladi. Milliylikda milliy mansublik ruhi mavjud. Milliy ruh badiiy qiyos tushunchasi emas, balki tabiiy-tarixiy voqyeligimizdagi missiy in'ikos, idrok, tushuncha, hukm, xulosalarimiz ifodasi bo'lib, u kishilarda sosiologik jarayondir. Milliy ruximizdagi milliy tuyg'ularimiz mavjmui milliy tasavvurlarimiz, kayfiyatlarimizda oddiy ong sifatida ifodalanadi. Agar milliy mansublik va uning barcha tomonlari kishilar tasavvurida ilmiy asoslangan bo'lsa, uni biz milliy o'z-o'zini anglash deb tushunamiz. Milliy o'zligini anglash ilmiy-siyosiy tus olsa va ijtimoiy harakat uchun qo'llanma darajasiga ko'tarilsa, biz uni milliy mafkura deb ataymiz. Milliy mafkura milliy siyosatning yetakchi omilidir. Shu bilan birgalikda milliy mafkura milliy qadriyatlar manfaatlarini hoshoya qiluvchi asosiy qurol sifatida namoyon bo'ladi. Milliy uyg'onish mafkurasi bo'lmog'i lozim. Gap millatlarning yashash huquqi, milliy mansublikka ega bo'lish, fuqarolik huquqi, mustaqillik va betaraflikka egalik, o'z taqdirini o'zi belgilash va boshqarish huquqi, ajdodlarimizning milliy urf-odatlarini, an'analarini e'zozlash huquqi, ajdodlar tarixi bayon etilgan yozuvni tiklash, o'z tilini davlat tili maqomiga ko'tarish va rivojlantirish, o'z millati va jahon madaniyati yutuqlarini egallash huquqi, milliy iqtisodiy mustaqillikka erishish huquqi kabi masalalar haqida bormoqda.

Milliy onglilikning mohiyatini to'g'ri tushunmaslik oqibatida, ba'zi hollarda bunday munosabatlar millatchilik illatlariga muhtalo etilmoqda. Millatchilik g'ayriinsoniy illat bo'lib, avvalo o'zga millatlarga, qolaversa, o'z millatiga ham

xudbinlarcha qarash fojiasidir. Bu o'z millatini va uning manfaatlarini xudbinlik zaminida mutlaqlashtirish yo'lida boshqa millatlarning manfaatlari bilan hisoblashmaydigan, ularning qadriyatlarini poymol qiladigan, shu asosda ularni kamsitib, tazyiq etib, ijtimoiy adolatlar tug'diradigan illatdir.

Demak, milliy g'ururni millatchilik bilan ayniyashtirib bo'lmaydi. Milliy g'urur har bir millatga xos bo'lgan xususiyatlarni himoya qilib, ularning kelajak hayotini yuksaltirishga qaratilgan tabiiy intilishdir. Millatchilik esa — bu bittagina millatning muddaosini himoya etib, boshqa millatlarning ehtiyojlarini pisand qilmasdan, ularning huquq va erkinliklarini chegaralab qo'yishga qaratilgan harakatdir. «Milliy tuyg'u inson uchun tabiiydir, chunki u ota-onalardan meros qilib olingan va bola ota-onasiga, butun dunyoga aytgan birinchi so'zida ifodalanadi».

Milliy psixologiya — har bir millat vakilining milliy his-tuyg'ulari, xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari, psixik temperament va fe'l-atvorlari kabi munosabatlarni namoyon etadi. Ma'lumki, milliy tuyg'u — bu tabiiy tuyg'udir. Ayni paytda milliy ma'naviy hayotining juda ham nozik elementidir. Milliy tuyg'ular esa milliy iftixor, milliy xarakter, ya'ni milliy psixologiyaning belgilaridan biri, uning ajralmas qismidir.

Milliy his-tuyg'u milliy iftixor va xalqparvarlik bilan borliqdir. U o'z millatining tarixini, hozirgi ahvoli, milliy psixologiyasi va xarakterini ruhiy tushunish, emosional shaklda mujassamlashishidir. Biroq his-tuyg'ular, emosiyalargina millatlarning tub manfaatlarini bevosita ifoda qilmaydi. Shuning uchun ham milliy tuyg'u milliy ongdan farqlanadi.

Milliy tuyg'ularning qanchalik qaram bo'lib qolishiga qarab millatlarning qadr-qimmatiga bo'lgan e'tiborsizlik shunchalik xavfli tus olib boradi. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, milliy his-tuyg'ularni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va axloqiy omillarga suyanib, milliy mafkura asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, milliy qadr-qimmat millatlararo munosabatlarning eng muhim tomonlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham mutafakkirlar millatning qadr-qimmatini oddiy so'z bilan kamsitish hech mumkin emasligini

qayta-qayta ta'kidlagan edilar. O'zini ko'rsatib turadigan milliy manmanlik, milliy maxdudlik, milliy maqtanchoqlik boshqa bir millat his-tuyg'ularining kamsitilishiga olib kelishi mumkin. Bir millatni boshqa millatga maqtash, uning tarixi, madaniyatini ideallashtirish, til va urf-odatlarini targ'ib etish, albatta, ikkinchi millatning tuyg'ulariga muayyan og'ir botadi. Bu esa milliy tuyg'ularning millatchilik tuyg'ulariga aylanib ketishiga olib kelishi mumkin. Shoviniistik qarashlarning asosi ham mana shu milliy tuyg'ularning kamsitilishidan yuzaga keladi. Shoviniistik kayfiyatning shakllanishi asosan milliy tubanlik, o'z millati manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishda, boshqa millatlar va jumhuriyatlarning manfaatlarini hisobga olmaslik, o'z millatini ko'klarga ko'tarish va boshqalarda namoyon bo'ladi. Milliy psixologiyadagi shoviniistik xislatlar oddiy insonlar ongini milliy maxdudlik, milliy xudbinlik kabi salbiy tushunchalar bilan zaharlashga, ularning bexuda bezovta bo'lishiga ham sabab bo'ladi.

Milliy iftixor ham milliy o'z-o'zini anglashning ko'rinishidir. Milliy o'z-o'zini anglashning rivojlanishi bilan milliy iftixor, milliy his-tuyg'ular namoyon bo'ladi.

Insonlar bo'ladiki, qaysi bir ishni boshlasa, uni oxiriga yetkazmasdan qo'ymaydi. Uni amalga oshirish yo'lida zahmat chekadi, qiynaladi, yuguradi-yeladi. U qancha qiynalmasin, azob chekmasin, izidan, yo'lidan qaytmaydi.

Yana bir toifa odamlar borki, ular maqsadsiz, beg'am yashaydilar. Boshlagan ishi yo'lida ozgina to'siq yoki qiyinchilik uchrasa, tashlab qo'yadi, nihoyalamaydi. U haqdagi odamlarning yaxshi-yomon gapi bilan ham ishi bo'lmaydi.

Mana, ikki xil odam manzarasi. Ular bir-biriga qarama-qarshi xarakter, ruhdagi kishilar. Binobarin, har ikkalasi ham odamlardir. Birinchisida g'urur bor, boshlagan ishidan faxrlanadi. Ikkinchisi esa g'urursiz, tinch-xotirjam yashashni, qiyinchiliksiz umr ko'rishni afzal ko'radi.

Zotan, insonni buyuk ishlarga ilhomlantiruvchi kuch g'ururdir. Uning mazmunida o'z oilasidan, ota-onasidan, Vatanidan, avlod-ajdodlari qoldirgan moddiy va ma'naviy merosdan, kasb-koridan, millatidan, ijtimoiy foydali mehnatidan, farzandlaridan faxrlanish hissi mujassamdir.

«Milliy g'urur —har bir millatning o'z-o'zini anglash natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Bu-tuyg'u uz ona zamini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon sivilizasiyasiga qo'shgan hissalaridan, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obru-e'tiboridan faxrlanish hissiyotidir».

Faxrlanish — milliy g'ururning negizini tashkil etadi. Tabiat va jamiyat voqeya-hodisalaridan, o'z va o'zgalarning yutug'idan faxrlana olish ham buyuk ne'matdir. Milliy g'ururi baland inson o'z or-nomusi, hayosi, iffatini saqlay biladi. Har xil va'dalarga uchmaydi, turli ta'sirlarga, oqimlarga tushib qolmaydi. Har qanday vaziyatda ham o'zini boshqarish, xatti-harakatini nazorat qilish, xalqimizda aytilganidek, «Yetti o'lchab bir kesish» qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ma'naviy qashshoqlik milliy g'ururning zavolidir. Ma'naviy barkamol inson o'z g'ururini o'tkinchi havas uchun poymol qilmaydi. Irodasi mustahkam, e'tiqodi butun, qalbida muhabbat tuyg'usi kuchli (ota-onaga, oilaga, Vatanga, millatga, xalqqa, o'zi tug'ilib o'sgan ona zaminga, yoriga, farzandlariga, do'stu birodarlariga, kasbiga va hokazo) insonning milliy g'ururi balanddir.

Milliy g'ururi baland inson adolatsizlikka, nohaqliklarga, subutsizlikka, yolg'onga, aldanchilikka, milliy kamsitilishga, millat, Vatan xoinlariga, xiyonatga, obru-e'tiborining toptalishiga nisbatan beshafqat bo'ladi. G'ururi baland inson har qanday laganbardorga, tajovuzkorlarga bosh egmaydi, kerak bo'lsa jonini ham fido qiladiki, lekin o'zgalarga ozor bermaydi, sotqinlik, diyonatsizlik, nodonlik qilmaydi.

O'z g'ururini poymol etish baxtsizlikka yetaklovchi yagona yo'ldir. Hayotda ba'zi qizlarimiz asrlar osha avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan Sharq qizlarining hayosi, ibosi, g'ururini saqlash talablariga qarshi borib, hayotga yengil-yelpi qarash, uzoqni o'ylamaslik va ko'ra bilmaslik oqibatida yigitlarning yolg'on so'zlariga ishonib, o'z nomuslarini poymol qiladilar. Natijada, bir umr baxt va baxtiyorlik, hayot lazzati nima ekanligini bilmaydilar. Ularning hayotlari ta'na-yu dashnomlar ostida o'tadi. Afsuski, «keyingi pushaymon o'ziga dushman» ekanligini kech anglaydilar, (Shukrlar bo'lsinki, bunday qizlar juda ham kam). O'z

g'ururini poymol qilmagan inson millat g'ururini ham saqlay biladi.

Yoshlik oltin davrdir. Uni ehtiyot qilish, yigit-qizlar o'z umrini befoyda, samarasiz o'tkazishlariga yo'l qo'ymaslik biz kattalarning yoshlar oldidagi burchimizdir. O'z burchiga mas'uliyatli ota-ona, ustoz murabbiylar qo'lida tarbiyalangan yoshlarning milliy g'ururi mustahkam bo'lib tarbiyalanishi tabiiydir.

O'ziga o'ta bino qo'yish, nasl-nasabi, mol-dunyosi, mansabidan, xusnidan gerdayish, manmanlikka berilish, qobiliyatiga ortiqcha baxr berish, o'z yutuqlaridan xavolanib ketish qabohatdir. Afsuski, bularning barchasi vaqtinchalik, o'tkinchi narsalar ekanligini unutmash zarur. Xalqimizda «Kamtarga kamol, manmanga zavol», «Boshing osmonga yetsa ham, oyog'ingni ostiga qara» degan naqlar bejiz aytilmagan. Biroq g'ururni gerdayish, o'ziga bino qo'yish, yutuqlardan esankirash, ijobiy ma'nodagi «o'jarlik»ni, «qaysarlik»ni manmanlik deb tushunmaslik kerak. Holbuki, kamtar, oddiy, bag'rikeng insonda g'ururlanish hissi kuchli bo'ladi.

Ba'zan hayotda o'z millatidan, tilidan, shevasidan kiyimidan, tug'ilib o'sgan joyidan (qishloq, cho'l, dasht, sahro va hokazo), oddiy avlod-ajdodlari kasb-hunaridan, hattoki ota-onasining bundayroq moddiy holatidan or qiladigan kimsalar onda-sonda bo'lsada uchrab turadi. Mustabid tuzum davrida bunday hodisalar son-sanoqsiz edi. O'z ona tilini umuman bilmasdan, hatto tan olmasdan, o'zining chiroyli o'zbek ismi turib o'zga millat ismlarini ma'qul ko'rgan (Gulchehra - Gulya, Zulfiya — Zoya, Bahriddin — Borya, Nigora — Nina, Nodira — Nadya, Sojida — Sonya, Marks, Telman, Mels va hokazo) o'zga millat urf-odatleri, an'-analariga, hatto o'z dinigamas, o'zga dinga e'tiqod qilganlar, milliy g'urursiz kimsalarni ko'plab uchratish mumkin edi.

Mustaqillik, istiqlol bunday manqurtlikka chek qo'ydi. Yurtboshimiz aytganlaridek: «Biz orzu etgan buyuk davlatni bunyod qilish barchamizdan mustahkam iroda, iymon-e'tiqod, milliy g'urur tuyg'usi, buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan ma'naviy bisotga ega bo'lishni talab qiladi. Bilaklarimizda kuch, qalblarimizda kelajakka ishonch bo'lmog'i shartdir».

O'zbek xalqi milliy g'ururi baland xalq. Milliy g'urur o'z ongini, ruhiyatini boshqa millatlarga qarshi qo'yish emas, balki boshqa millat xalqlariga o'z milliy-ma'naviy va moddiy boyliklarini, jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan ulkan ulushini, milliy qadriyatlarini (axloqiy, aqliy, ekologik, iqtisodiy, diniy, adabiy-badiiy, hunarmandchilik, axloqiy-ma'naviy va hokazo) namoyon etishdan iboratdir.

O'zbekning paxtasi, pillasi, oltini, atlasini, do'ppisi, tarixiy obidalari, palovi, mehmondo'stligi, insonparvarligi, iymon-e'tiqodi, buyuk allomalari uning faxridir. Ulardan har bir fuqaro g'ururlanishi lozim.

Milliy g'urur ona suti, ota namunasi, avlod-ajdodlarning irsiy fazilatlarini, axloq-odob mezonlari orqali farzand ongiga singdiriladi. Milliy g'ururi baland yoshlar mamlakatimiz kelajagidir. Shuning uchun har bir fuqaroda, yosh avlodda milliy g'ururni shakllantirish, mustahkamlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlash uchun, avvalo, millatimizning paydo bo'lish, rivojlanish, millat bo'lib shakllanish tarixi, urf-odatlarini, an'analari, adabiyoti, sai'ati, madaniyati, dini va ularning insoniyat tarixi taraqqiyotida tutgan o'rnini mukammal bilmoq zarur. Ikkinchidan, umuminsoniy qadriyatlarni bilish, ulardagi milliy mentalitetimizga mos ilg'or g'oyalarni amaliyotga joriy etish va shu asosda milliy qadriyatlarimizni mazmunan va shaklan boyitmoq lozim. Uchinchidan, jahon andozalariga mos yangi texnika va texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va unda faollik ko'rsatish kerak. To'rtinchidan, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan fuqarolarning irqi, millati, naslu nasabi, tili va diniy e'tiqodidan qat'i nazar millatlararo, fuqarolararo totuvligi, hamjihatligi va yakdilligiga erishmoq uchun barcha chora-tadbirlari ko'rmoq lozim. Shundagina hech qanday yovuz kuch kup millatli mamlakatimiz xalqlari o'rtasiga raxna sololmaydi. Ular bir-birlari bilan do'st-birodar, hamkor va hamfikir, bir-birlaridan faxrlanish va g'ururlanish hissi bilan yashaydilar. Bunday o'zaro do'stona munosabat yosh avlod tarbiyasida ham muxim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, milliy g'urur qalblarni, jamiyat jamoli va kamolini bezaydi, ezgu ishlarga ilhomlantiradi. Yuqorida zikr qilingan, tahlil va tadqiq etilgan muammolar oila tarbiyasi bilan bevosita borliqdir. Zotan, oila — milliy g'urur koshonasidur, ustaxonasidir.

II BOB. KASB-HUNAR KOLLEJI O'QUVCHILARIDA MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI

2.1. Dars jarayonida o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Dars deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotlariga aytiladi.

Dars – o'quv mashg'ulotlarining asosiy tashkiliy shaklidir.

Dars – o'quv ishlarining markaziy qismidir.

Maktablarimiz bosib o'tgan tarixiy davr ichida ta'limni tashkil qilish shakllari o'zgardi, rivojlandi. Hozirgi maktablarimizda qo'llanilayotgan sinf-dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi:

1. Har qaysi sinf yoshi bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi.

2. Dars mashg'uloti asosan 80 minutga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval orqali olib boriladi.

3. Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.

4. Dars o'tilayotgan materiallarning mazmuniga qarab, xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.

Ayni paytda, maktablarimizda ta'limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda:

1. Sinf – dars shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

2. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

Sinf – dars shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar o'qituvchining kundalik o'uv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishini, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy

didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga yega bo'lmog'i lozim.

3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'lanmog'i lozim.

4. Har bir dars xilma-xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalanilgan holda olib borilmog'i lozim.

5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq lozim.

6. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.

7. Darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rgazmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

8. Dars mashg'ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o'quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish himobga olinadi.

Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Quyida biz kollej o'quvchilarida milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglashni shakllantirishga xizmat qiladigan dars "Umumiy pedagogika" fanidan 1-kurs o'quvchilari uchun o'quv dars ishlanmasini keltirdik.

**XIV-XVI ASRLARDA MOVAROUNNAXR DATARBIYA,
MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI
Ma'ruzani olib borish texnologiyasi**

Ma'ruzaga ajratilgan soat-	O'quvchilar soni
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'lumotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ilm-fan va madaniyat. 2. Soxibkiron Amir Temurning ma'rifiy karashlari va uning pedagogika fanida tutgan o'rni. 3. Mirzo Ulugbekning ilmiy merosi va uning ta'limiy-tarbiyaviy karashlari.

	4.Zaxiriddin Muhammad Boburning ma'rifiy-axlokiy qarashlari. 5.Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy,Davoniy,Voiz Koshifiylarning ta'limiy –axloqiy qarashlari
Mashg'ulotning maqsadi: XIV-XVI asrlarda Movarounnaxrda tarbiya,maktab va pedagogik fikr taraqqiyoti haqida tushuncha hosil qilish,umumiy tasavvurni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari:
1.Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ilm,fan va madaniyati,taraqqiyoti masalalarini yoritib beradi. 2.Amir Temurning ma'rifiy qarashlarida ta'lim-tarbiyada tutgan o'rni haqida ma'lumot beradi. 3.Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi va uning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari bayon etiladi. 4. Z.M.Boburning ma'rifiy-ahloqiy qarashlari yoritildi. 5. Alisher Navoiy.A.jomiy,Davoniy va Voiz Koshifiylarning ta'limiy-ahloqiy qarashlarini yoritib beradi.	1.Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida ilm-fan va madaniyat yuksak rivoji,A.Temurning ilm fan va ma'naviyat va madaniyat homiysi ekanligini aytib beradi. 2. Amir Temur ilm-ma'rifat,ma'naviyat,madaniyatni rivojlantirishdagi faoliyati haqida,uning"o'g'itlari", "Temur tuzuklarida" ilgari surilgan sifatlarni izohlab beradi. 3.Ulug'bekning ilmiy merosi, ilmiy fanga qo'shgan ulkan xissasi,ilm fanni rivojlantirish maqsadida olib borgan islohatlari va uning xozirgi davrdagi ahamiyatini aytib beradi va nazariy bilmga ega bo'ladi. 4.Z.M.Boburning ilm-fan,madaniyat,ma'rifat sohasidagi olib borgan ishlari odob-ahloq haqidagi fikrlarini uning asarlari orqali izohlab beradi. 5.A.Navoiy, Jomiy,Davoniy va Voiz Koshifiylarning ta'limiy-ahloqiy qarashlarini,ular tomonidan yaratilgan va hozirgi kunda ham ta'lim-tarbiya sohasida juda katta ahamiyat kasb etgan ilmiy meroslari va ulardan hozirgi zamon ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning ahamiyati haqida nazariy bilmga ega bo'ladilar.
Ta'lim metodi	Ma'ruza,tushuntirish,aqliy hujum,kaskat.
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza,ommoviy guruhlar
Didaktik vositalar	Ma'ruza matni,slyad,taqdimot
O'qitish shart-sharoiti	Maxsus tehnik vositalar bilan jihozlangan xona
Monitoring va baholash	o'z-o'zini nazorat qilish, savol-javob

XIV-XVI ASRLARDA MOVAROUNNAXRDATA TARBIIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI

Ma'ruzaning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi</i>
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (10 minut)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyatijarayonini tushuntiradi.	Tinglaydilar.
	1.2. O'quvchilarning mashg'ulotdagi faoli-yatini baholash ko'rsatkichlari va mezon-lari bilan tanishtiradi..	Tinlaydilar. O'UM ga qaraydilar.
	1.3. Savollar berib suhbat tarzida o'quvchilar bilimlarini jonlantiradi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy	2.1 Mavzuning mazmunini ochib beradi va sharhlab boradi. Ma'ruzaning asosiy joylarini konspekt	Tushunchalarni sanab beradilar.

(50 minut)	daftoriga yozib borish kerakligi uqtiradi. O'quvchilar tayanch ma'lumotlar bilan tanishganlaridan so'ng quyidagi topshi-riqni e'lon qiladi. Ekranda berilgan topshiriqlarga og'zaki javob beradilar. Berilgan topshiriqlar bo'yicha top-shiriqlarni bajarishni tashkillashti-radi. Bir necha juftliklar topshirgan og'zaki javob natijalari tekshiriladi va xulosalanadi.	
	2.2. Ekranda ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida "Kaskad" texnikasidan foydalanilgan holda ularni talqin etishga oid misollar mazmunini tushuntiradi. Ba-jarish bo'yicha maslahatlar beradi. Kuzatib boradi.	Tinglaydilar O'UMga qaraydilar
	2.3. Kutilgan natijalar asosida ekrandagi tushunchalarni og'zaki ravishda izoh berishni tashkil-lashtiradi. Javoblarni taqqoslaydi va xulosalaydi.	Sxema-slaydlar-ning mazmunini muhokama qilib boradilar va savol beradilar.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.	Tinglaydilar.
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi o'quvchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladilar.
	3.3. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar beradi.	O'UM ga qaraydilar.
	3.4. Mavzu bo'yicha mustaqil ish va seminar topshiriqlarini beradi.	O'UM ga qaraydilar.

XIV-XVI ASRLARDA MOVAROUNNAXR DATARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI

REJA:

1. Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ilm-fan va madaniyat.
2. Soxibqiron Amir Temurning ma'rifiy karashlari va uning pedagogika fanida tutgan o'rni.
3. Mirzo Ulugbekning ilmiy merosi va uning ta'limiy-tarbiyaviy karashlari.
4. Zaxiriddin Muhammad Boburning ma'rifiy-axlokiy karashlari.
5. AlisherNavoiy, Abdurahmon Jomiy, Davoniy, Voiz Koshifiylarning ta'limiy –axloqiy qarashlari

Tayanch tushunchalar: «Markazlashgan davlat»; «Madrasa va maktab», «ilm-fan», «madaniyat, san'at», «Amir Temur tuzuklari», «Ziji Ko'ragoniy»,

«Ulug'bekning ta'lim isloxlari», «Boburnoma», «Esdaliklar» Alisher Navoiyning tarbiya konsepsiyasi, yaxshilik va yomonlik, munosib va nomunosib kishilar, Jomiy va poklik, Jomiy va komillik, pokizalar shaxri, Jaloliddin Davoniy “Ahloqiy jaloliy”, Husayn Voiz Koshifiy va komil inson tarbiyasi, voizlik, futuvvat, futuvvat va so'fiylik, tarbiya metodlari.

1. Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ilm-fan va madaniyat.

Tarixdan bizga ma'lumki, XIV asrning o'rtalarida Markaziy Osiyoda mayda feodal xokimlar o'rtasida nizo kuchaydi, iqtisodiy qiyinchiliklar yuz berdi, siyosatda qat'iyatsizlik avj oldi. Xokimlar o'rtasida nizolar kuchayishi natijasida mamlakat 10 ta mustaqil beklik va amirliklarga bo'linib ketdi.

Shunday og'ir bir parokandalik vaziyatda el-yurtning og'ir yukini Amir Temur o'z yelkasiga oldi va qariyb 10 yil (1360-1370) davom etgan og'ir kurashdan so'ng mamlakatni mo'g'ullar istibdodidan xalos qildi. 1370-1380 yillar mobaynida Amir Temur say'i xarakatlari samarasi natijasida beklar va amirlar o'rtasida nizolarga barxam berildi va Movarounnaxrdagi tarqoq, amirliklar markazlashgan yagona feodal davlatning bayrog'i ostida birlashtirildi.

Amir Temur hukmronligi davrida jaxonning ko'plab shaxarlaridan Samarqandga xunarmandlar, san'atkorlar, muxandislar, olimu-fozillar olib kelindi va ularning tajribalaridan ilm-ma'rifat, madaniyat va qurilish jabxalarida keng foydalanildi. Samarqand va Xirotda madrasalar, rasadxonalar, bog'u-rog'lar, madaniyat o'chog'lari barpo etildi. Shu davrga kelib tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa, xuquqiy, targ'ibot, tarbiyashunoslikka oid bir qator ajoyib va muxim asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Hayyom, Sa'diy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Imom Buxoriy, At-Termiziy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga xarakat kuchaydi. Mamlakatda davlatni boshqarishni mukammallashtirish, qurilish, obodonchilik, sug'orish ishlariga, shaxarlar o'rtasidagi savdo yo'llarini kengaytirishga katta e'tibor berildi.

Soxibqiron Amir Temur say'i xarakati tufayli Samarqand shaxri yangidan qayta tiklandi. Shaxarda Ko'k saroy, Bibixonim masjidi, Shoxizinda maqbarasi,

shaxar atrofida Bog'i Chinor, Bog'i Dilkusho, Bog'i Bexisht, Bog'i Nav, Bog'i Jamol, Bog'i Naqshijaxon, Bog'i Shoxrux, Bog'i baland, Bog'i davlatobod, Bog'i Bo'ldi, Bog'i maydon, Bog'i Jaxonnoma kabi bog' va saroylar barpo etildi.

Markaziy Osiyoda rassomchilik, naqqoshlik, 6yezakli-badiiy buyumlar ishlab chiqarish yuqori darajaga ko'tarildi.

Sohibqiron Temur va temuriylar davrida - she'riyat, mantiq, falsafa, tarix, huquq, astronomiya, matematika, nafosat, tilshunoslik, lug'atshunoslik, musiqashunoslik, tarbiyashunoslik, me'morshunoslik, tijorat — tadbirkorlik, tarjimonlik, xattotlik, jo'g'rofiya va elshunoslik kabi boshqa o'nlab dunyoviy bilimlarni o'rganish, shu bilimlar asosida asarlar yaratish yo'lga qo'iildi.

Amir Temur xukmronligi davrida o'rnatilgan tinchlik mamlakatda madaniyat, ilm-fan, xalq og'zaki ijodi, adabiyot va san'atning rivojida, madrasalarda ta'lim-tarbiyaning yuqori saviyada bo'lishida muxim omil bo'ldi.

XV asrda Markaziy Osiyoda tarix fani keng rivoj topdi, til, mantiq, falsafa, tarbiyashunoslikka doir o'nlab asarlar yaratildi. Ayniqsa, Mir Sayd Sharif Jurjoniy, Xofizi Abro' Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir, Davlatshoh Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Sharofiddin Ali Yazdiy va shu kabi o'nlab olimu-fuzalolarning yaratgan asarlari jahon fanida katta o'rin egalladi. Sulton Xusayn Boyqaro hukmronlik qilgan davrga kelib, olimlar va shoirlar Samarqanddan Hirotga ko'chib o'tdilar. Xirotda ilmiy-madaniy markazga aylantirildi. Alisher Navoiy Xirotda fan, madaniyat, ilm va ma'rifatga homiylik qilishi natijasida bu yerda shoirlar, musavvirlar, hattotlar, olimu-fozillar yetishib chiqib, jahon ilmu fani olamida nom qozondilar.

2. Sohibqiron Amir Temurning ma'rifiy qarashlari va uning pedagogika fanida tutgan o'rni. Sizlarga mu'lumki, uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida Kun kechirgan xalqimiz o'z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeyini munosib o'rniga qo'yish imkonidan mahrum edi.

Mustaqilligimiz sharofati ila bunday nomaqulchiliklarga chek qo'yildi. Tarixni xolisona o'rganish, tarixni soxtalashtirmay, uning sarhadlarini buzmay, bor haqiqatni oydinlashtirib ma'lumot berish imkoniyatlariga ega bo'ldik...

Darhaqiqat o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutilishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi.

Darxakiqat, Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek insof-iymon tuyg'usi, diyonat mezonini Amir Temur xayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning kariyib yarmiga jaxongir ersa-da, u kuch-kudrat zo'rlik, zo'ravonlik emas, adolatda ekanini teran anglatdi. Shu bois bo'lsa kerakki, o'tmishda jaxon ilm axli, mashxur muarrixlar o'z asarlarida Amir Temur ismiga Ko'ragon, Soxibqiron, Qutbiddin, Abulmansur kabi unvonlarni qo'shib, uni e'zozlab, ulug'lab, xikoyat, rivoyat va xotiralar bitganlar.

«Tarixiy manbalarda zikr etilishicha, Amir Temur xushfe'llik, adolat, saxovat, lutfi-karam, islom axloq-odob qoidalariga rioya va amal qilish, insonlarni jamiyatda tutgan o'rinlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar barobar xurmat qilish, ular bilan samimiy muomalada bo'lish, berilgan va'da va zimmaga olingan ahdnomalarni vaqtida bajarish kabi qator yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan.

U yoshligidan boshlab o'z oldiga ona yurtni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo'ydi, yer yuzida buyuk saltanat soxibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini xar sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashxur qildi.

Tarix fanlari doktori prof. Ashraf Axmad Sohibqiron Amir Temurning o'zi amal qilgan sifatlarni yuksak baxolaydi. Bular quyidagilar:

-... Hammaga xam bir xil: jiddiy va odil qaradim... Boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim;

-... Islomga kat'iy rioya kildim. ...

-Men kambagallarga ko'p xayr-ex, son kildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal kilishga butun jahdimni sarf kildim;

-Xaloyiqqa rahm kildim, barchaga naf yetkurdim.

-... Birovga nohak ozor yetkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'krashdan itarmadim...;

-Islomga taalluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qilib keldim...;

-Barcha so'zlarimdan doim haqiqatgo'ylikka amal kildim...

-Men har kimga va'da bersam, unga vafo kildim...;

-Aoimo o'zimni Allohning yerdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigor iznisiz uni sarf etmadim...;

-Men har doim insof bayroshni baland ko'tardim va iymon tarkatishni o'z buyukligimning kudratli zamini deb bildim...;

-Men doim saidlarga ehtirom bilan karadim, ulamo va shayxlarni e'zozladim...

Shunday qilib soxibqiron Amir Temurning ibratli, xayotiy pand-nasixatlari va purma'no o'gitlarining har bir mazmun va ma'no kengligi, mantikning kuchliligi, teranligi, ta'siri umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan aloxida axamiyat kasb etadi, ularni hadsiz hazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. XIV-VI asrlarda Movarounnaxrda fan, madaniyat va maorif taraqqiyoti qay darajada edi?
2. Nima sababdan XIV asrning ikkinchi yarmi - XVII asrlar Sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deyiladi?
3. Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida qanday madaniy - ma'rifiy maskanlar barpo etildi, tarixiy obidalarni izoxlang?
4. Amir Temur o'zi amal qilgan sifatlar qanday edi va ularni izoxlang?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Karimov I.A.** Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch T.2008 Bizdan ozod va obod vatan kolsin. Toshkent, «o'zbekiston», 1994, 91-93-betlar
2. **Karimov I.A.** Amir Temur faxrimiz, g'ururimiz. T.,o'zbekiston, 1996.
3. **Amir Temur va temuriylar xaqida.** Misr kutubxonalarida saklanayotgan manbaa va qo'llanmalar FIXRISTI (Muqaddima muallifi - Sh.Boboxonov, tayyorlovchi -

N.M.at-Taroziy) Qoxira, 1996.

4. **Amir Temur o'g'itlari.** T.: Cho'lpon, 1992.

5. **Axmedov A. Ulug'bek.** Toshkent, FAN 1991

6. **Ibn Arabshox. Amir Temur tarixi.** 1-2 jildlar. T.: Mexnat 1992.

7. **Mo'minov I.** Amir Temurning o'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. - Toshkent, FAN, 1969, 1993 y.

8. **Niyozov G, Axmedova M.** Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari.T., X/T "QUDRAT - PRINT" 2010y.

9. **Pedagogika tarixi.** Ma'ruza matnlari 1 qism.(Tuz.S.Nishonova., B.Hasanova.) T., TDPU 2001.

10. **Pedagogika tarixi darslik** (Tuz.A.Zunnunov,M.Xayrullayev va boshqalar)T.Sharq.2000


11. **Temur tuzuklari.** Prof. B.Axmedov taxr. ost. Adabiyot va san'at nashriyoti -T., 1991.

12. **«O'zbek pedagogikasi tarixi»** (prof. A.Zunnunov umum. taxr.ost.) T. O'kituvchi, 1997.

13 **O'zbek Pedagogikasi Antologiyasi.** (Tuz. Hoshimov K; Safo Ochil.) T.:O'qituvchi 1995;2000

«Kaskad» texnologiyasi

Ushbu texnologiya g'oyalarni tizimini ishlab chiqishga ko'mak beradi.
Asosiy maqsadi: aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollatirish.



SLAYDLAR

1 slayd

Sohibqiron Amir Temur say'i xarakati tufayli Samarqand shaxri yangidan qayta tiklandi. Shaxarda Ko'k saroy, Bibixonim masjid, Shoxizinda maqbarasi, shaxar atrofida Bog'i Chinor, Bog'i Shamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Bexisht, Bog'i Nav kabi bog' va saroylar barpo etildi. Ko'xak - Zarafshon, Amudaryoga ko'priklar qurildi. Toshkent atrofida kanallar qazildi

Sohibqiron Temur va temuriylar davrida - she'riyat, mantiq, falsafa, tarix, huquq, astronomiya, matematika, nafosat, tilshunoslik, lug'atshunoslik, musiqashunoslik, tarbiyashunoslik, me'morshunoslik, tasviriy san'at, tijorat — tadbirkorlik, tarjimonlik, xattotlik, jo'g'rofiya va elshunoslik kabi boshqa o'nlab dunyoviy bilimlarni o'rganish, shu bilimlar asosida asarlar yaratish yo'lga qo'iildi.


Ulug'bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va shular bilan bir qatorda diniy bilimlarning xam ravnaq topishiga katta e'tibor berildi. Oliy maktab - madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda qurilgan uch madrasa fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo'lib keldi.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar xaligacha yaqqol ko'zga tashlanadi: «Ilm olmoqqa intilmoq har bir musulim va musulima uchun qarzu farzdir». Shu sababli xam, biz xech ikkilanmay XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr Markaziy Osiyo tarixida uyg'onish davri bo'lib tarix saxifalaridan o'rin oldi deya olamiz


XV asrda Markaziy Osiyoda tarix fani keng rivoj topdi, til, mantiq, falsafa, tarbiyashunoslikka doir o'nlab asarlar yaratildi. Ayniqsa, Mir Sayd Sharif Jurjoni, Xofizi Abro' Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir, Davlatshoh Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Sharofiddin Ali Yazdiy va shu kabi o'nlab olimu-fuzalolarning yaratgan asarlari jahon fanida katta o'rin egalladi. Sulton Xusayn Boyqaro hukmronlik qilgan davrga kelib, olimlar va shoirlar Samarqanddan Hirotga ko'chib o'tdilar. Xirot ilmiy-madaniy markazga aylantirildi. Alisher Navoiy Xirotida fan, madaniyat, ilm va ma'rifatga homiylik qilishi natijasida bu yerda shoirlar, musavvirilar, hattotlar, olimu-fozillar yetishib chiqib, jahon ilmu fani olamida nom qozondilar.

XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va pedagogik fikrlar yuksak taraqqiyot darajasiga erishgan deb ayta olamiz.


2-SLAYD



Amir Temur davlatini boshqarishdagi 4 omil



A. Temur va temuriylar sulolasi davrida yaratilgan ma'naviy merosning o'zbek xalqining ma'naviy tiklanishida tutgan o'rni



**AMIR TEMUR
O'ZI AMAL
QILGAN
SIFATLAR
TASNIFI**

-... Hammaga xam bir xil: jiddiy va odil qaradim... Boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim;

-... Islomga kat'iy rioya kildim. ...

-Men kambagallarga ko'p xayr-ex,son kildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal kilishga butun jahdimni sarf kildim;

-Xaloyikka rahm kildim, barchaga naf' yetkurdim.

-... Birovga nohak ozor yetkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'krashdan itarmadim...; -

-Islomga taalluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qilib keldim...;

-Barcha so'zlarimdan doim haqiqatgo'ylikka amal kildim...

-Men har kimga va'da bersam, unga vafo kildim...;

-Aoimo o'zimni Allohning yerdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigor iznisiz uni sarf etmadim...;

-Men har doim insof bayroshni baland ko'tardim va iymon tarkatishni o'z buyukligimning kudratli zamini deb bildim...;

-Men doim saidlarga ehtirom bilan karadim,

Amir Temur faxrimiz-g'ururimiz

«Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temursiyomosini eslashi kerak».

Islom KARIMOV

«Biz Beruniylarga, Buxoriylarga, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Boburlarga voris bo'lamiz».

Islom KARIMOV

«Insof-iymon tuyg'usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyb yarmiga jahongir ersa-da, kuch-qudrat zo'rlik, zo'ravonlikda emas, aksincha, adolatda ekanini teran angladi

Islom KARIMOV

«Amir Temur – bizning shon-shavkatimiz, g'urur-iftixorimizdir»

Islom KARIMOV

«Amir Temur va Samarqand tushunchalarini bir-biridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi».

Islom KARIMOV

«Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san'ati ko'p asrlar davomida sharqu-g'arb davlatlariga o'rnak va andoza bo'ldi. Uning zamonida madaniyat, ilmu-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa, she'riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko'p an'analari takomilga yetdi. Amir Temur madaniyat va din axllariga ko'rsatgan cheksiz mehru-muruvvat ayniqsa ibratlidir»

Islom KARIMOV

Darxakiqat, Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek insof-iymon tuyg'usi, diyonat mezoni Amir Temur xayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning kariyib yarmiga jaxongir ersa-da, u kuch-kudrat zo'rlik, zo'ravonlik emas, adolatda ekanini teran anglatdi. Shu bois bo'lsa kerakki, o'tmishda jaxon ilm axli, mashxur muarrixlar o'z asarlarida Amir Temur ismiga Ko'ragon, Soxibqiron, Qutbiddin, Abulmansur kabi unvonlarni qo'shib, uni e'zozlab, ulug'lab, xikoyat, rivoyat va xotiralar bitganlar.

«...ayniqsa Bobur bilan Akbarshoh Hindistonda Temur davrida O'rta Osiyodagi iqtisodiy va madaniy taraqqiyot natijasida paydo bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirdilar»

Ibroxim MO'MINOV

«Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san'ati ko'p asrlardavomida Sharqu-G'arb davlatlariga o'rnak va andoza bo'ldi.Uning zamonida madaniyat, ilmu-fan, tasviriy sa'nat, musiqa,she'riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko'p an'analari takomilga yetdi. Amir Temur madaniyat va din axllarigako'rsatgan cheksiz mehru-muruvvat ayniqsa ibratlidir»

Islom KARIMOV

Milliy g'urur-iftixor o'zbek xalqining qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuch bo'lishi bilan birga shaxs madaniyatining asosiy fazilatidir.

O'zbekiston mustaqilligi tufayli o'zbek xalqining milliy g'urur tuyg'usi butun jahon bo'ylab qad ko'tardi. Jahon xalqlari orasida O'zbekiston eng yirik mamlakatlar qatoridan o'rin oldi.

Chunki, bugungi kunda O'zbekiston bayrog'i, O'zbekiston ramzi, madhiyasi bilan birga «O'zbekiston Qahramoni», «Mustaqillik», «Shuhrat», «Do'stlik», «Jasorat», «Amir Temur» kabi ordenlar o'zbek xalqining milliy iftixori bo'lib qoldi.

Umuminsoniy, milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz tiklandi. Yurtimizga xalq sevgan «Navro'z» kirib keldi. Ramazon, Qurbon hayitlariga yetdik. O'zligimizni angladik va o'zligimizga qaytdik. Qadimda ham xalqimiz milliy g'ururi bilan faxrlanishgan. Uning mazmunida ulug'vorlik, mag'rurlik kabi sifatlar o'z aksini topgan. G'urur deganimizda ko'z oldimizda haq va haqiqat gavdalanadi. Demak, g'ururli bo'lish birinchi navbatda xalq manfaatini yoqlash, elga foyda keltirish, milliy g'ururimizning asl mohiyatida ana shu umuminsoniy tuyg'ular yotadi.

2.2.O'quvchilarda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar asosida milliy g'ururni shakllantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Darsdan tashqari mashg'ulotlar kasb-hunar kollejaridagi o'quv tarbiyaviy tizimning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini ta'lim-tarbiya maqsadiga mos yo'naltirishga bevosita xizmat qiladi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar tashkil etilishiga qarab turli yo'nalish mazmun va shakllarda olib boriladi. Kollejlarda o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlariga qarab quyidagi shakllarda va ko'rinishlarda tashkil etilishi mumkin.

1. Kechalar uyushtirish; Tantanali kunlar, sana, yubileylarni nishonlash;

Musobaqalar, bellashuvlar, mushoiralar uyushtirish; auditoriyadan tashqari o'qishni tashkil etish; Ko'rgazmalar uyushtirish (fan sohalari bo'yicha); Sayohatlar tashkil etish; a) tabiat qo'yniga; b) tarixiy joylarga, muzeylarga; v) ishlab chiqarish korxonalariga; g) turli shaharlarga, ziyoratgohlarga; d) asarlar bo'yicha ularning g'oyalari, qahramonlariga mos aqliy sayohat; ye) muayyan shoir, yozuvchi ijodini o'rganishga bag'ishlab o'lkashunoslik materiallarini to'plash, tug'ilgan joyiga sayohat uyushtirish; Viktorina, disputlar tashkil etish; Mehnat va urush faxriylari, atoqli kishilar, ilg'or kasb egalari bilan uchrashuvlar o'tkazish; Bolalar bog'chalari, mehnat va urush nogironlariga, keksalarga beg'araz yordami ko'rsatish; Turli sohalari, fanlar to'garaklarida ishtirok etish; Ijodiy, tarixiy, arxeologik, folklor va boshqa ekspeditsiyalarda ishtirok etish; Maktab burchaklari tashkil etish; Bolalarning turli uyushmalari faoliyatida ishtirok etish; Kolleksiylar (namuna) yig'ish; Milliy urf-odatlar, marosimlarda ishtirok etish; Turli jamoatchilik topshiriqlarini bajarish: shanbalik, yakshanbaliklarda ishtirok etish; xo'jalik ishlarida yordam ko'rsatish va boshqalar.

Mustaqillik yillarida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlariga erishish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deya e'tirof etildi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Fidokor» gazetasining muxbiri savollariga javob berar ekan, bugungi kun yoshlari ega bo'lishlari zarur bo'lgan fazilatlar quyidagilar ekanligiga alohida urg'u beradi: «... yoshlarimizning iymon-

e'tiqodlarini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmashlik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularning, men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir», -degan edi.

O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish uzoq muddatli, murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning samarali tashkil etilishi bir qator omillarning ta'siri asosida kechadi. Tadqiqotni olib borish chog'ida kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishning muhim omillari quyidagilar ekanligiga ishonch hosil qilindi.

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lishlarida alohida ta'sir kuchiga ega bo'lgan omillardan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Quyida ana masala mohiyati yoritiladi.

O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantiruvchi omillar

1-jadval

№	Omillar	O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga bo'lgan ta'siri
1.	Millatning shonli tarixi, o'tmishi	O'quvchilarni millat tarixi bilan tanishtiradi, ularda millatning taraqqiyot yo'li to'g'risidagi bilimlarni hosil qiladi, milliy tarix negizida istiqbolga bo'lgan ishonchni qaror toptiradi
2.	Milliy til imkoniyatlari	O'quvchilarning milliy ruhda fikrlash, milliy tafakkurga ega bo'lishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi
3.	Xalq qahramonlarining jasorati	O'quvchilarga millat ozodligi, Vatan mustaqilligi, taraqqiyoti, istiqboli uchun kurashish oliy insoniy burch ekanligini anglatadi, ularni millat ozodligi, Vatan ravnaqi yo'lida kurashish istagini uyg'otadi
4.	Milliy-madaniy meros	O'quvchilarni millatga xos turmush tarzi, borliqqa bo'lgan yondoshuv, ijtimoiy munosabatlari mazmuni, milliy xarakter xususiyatlari bilan tanishtiradi, ularda milliy mentalitetga xos sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi
4.1.	Milliy qadriyatlar (urf-odat, marosim va an'analar)	O'quvchilarga millat hayoti, o'tmishi, kelajagi uchun dahldor bo'lgan omillar to'g'risida ma'lumotlar beradi, ular tomonidan milliy mentalitet xususiyatlarining to'la anglanishi uchun imkoniyat yaratadi, o'quvchilarda milliy urf-odat, marosim va an'analarning avlodlar tomonidan davom ettirilishi, ularning mazmunan boyitib borilishi yo'lida amaliy harakat ko'nikmalarini tarbiyalaydi
4.2.	Xalq og'zaki ijodi	Yosh avlodning milliy qadriyatlar ruhida ulg'ayishlari uchun

		sharoit yaratadi, o'quvchilarni milliy ruhiyat, milliy tafakkur, ijtimoiy borliqqa bo'lgan yondoshuv elementlari bilan tanishtiradi, ularda milliy ongning shakllanishi uchun xizmat qiladi
4.3.	Adabiyot	O'quvchilarga milliy hayot tarzi, uning tarkib topish jarayoni, milliy xarakter elementlari, ijtimoiy-milliy munosabatlar mazmuni haqidagi ma'lumotlarni beradi
4.4.	Ilm-fan	O'quvchilarni millatning intellektual salohiyati, uning jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi, jahon sivilizasiyasidagi o'rni bilan tanishtiradi
4.5.	San'at	Yoshlarga turli tasviriy vositalari yordamida milliy hayot tarzi, milliy xarakter xususiyatlarining shaxs kamolotini ta'minlashdagi roli haqidagi bilimlarni beradi
4.5.1	Xalq hunarmandchiligi	O'quvchilarni milliy ijodkorlik mazmunida aks etgan ezgu qarashlar bilan tanishtiradi, ularda milliy ruhiyatga asoslangan ijtimoiy munosabatni shakllantiradi
4.5.2	Milliy me'morchilik	O'quvchilarga milliy me'morchilik mazmunida o'z ifodasini topgan ijtimoiy tafakkur, milliy iqtidor to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazib berish asosida ularda ajdodlar an'alariga hurmat tuyg'ularini qaror toptiradi
4.5.3	Rassomlik	Rangli tasviriy vositalar yordamida o'quvchilarni milliy hayot tarzi, milliy ruhiyat xususiyatlari bilan tanishtiradi
4.5.4	Milliy musiqa va qo'shiqchilik	Ohanglar yordamida o'quvchilar tomonidan milliy xarakter, qarashlar mazmunining anglanishini ta'minlaydi, ularda estetik didni tarbiyalaydi
4.5.5	Raqs san'ati	Inson va borliq o'rtasidagi milliy munosabat mazmunini harakatlar yordamida ochib berish asosida o'quvchilarda milliy xarakter elementlarini shakllantiradi
4.5.6	San'atning boshqa turlari (kino, teatr, sirk, milliy dorbozlik)	O'quvchilarni milliylikning umuminsoniy madaniyatdagi o'rni bilan tanishtiradi, ular tomonidan milliy madaniyat jihatlarining turli madaniyatlar sintezidagi rolining baholanishiga imkoniyat yaratadi
5.	Oilaviy sulola an'analari	Yoshlar, jumladan, o'quvchilar tomonidan milliylik, milliy o'ziga xoslik, milliy qadriyatlar mazmunining puxta anglanishi uchun sharoit yaratadi, ularni milliy ruhiyat g'oyalari asosida tarbiyalashga yordam beradi
6.	Sport	O'quvchilarni millat vakillarining jismoniy kuchi, salohiyati darajasi bilan tanishtiradi, ularda sport millat nomini jahonga tez tanituvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qarashni yuzaga keltiradi, ularda shaxsiy jismoniy madaniyatni tarbiyalashga nisbatan rag'bat uyg'otadi
7.	Davlat ramzlari	O'quvchilarni millatning asriy qarashlari, borliqqa bo'lgan ijtimoiy munosabati mazmuni, shuningdek, uning sha'ni, g'ururi, or-nomusi, xalqaro maydondagi obro'-e'tibori to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtiradi, ularda millatning hayot tarziga nisbatan chuqur hurmat uyg'otadi, millatni ulug'lashga, uning taraqqiyotini ta'minlashga undaydi

Millatning shonli tarixi, o'tmishi. O'quvchilarga millatning shonli o'tmishi, tarixi haqidagi ma'lumotlar ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish

asosida yetkazib beriladi. Ta'lim muassasasida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan ijtimoiy, gumanitar va tabiiy fanlar ham o'quvchilarni millat ravnaqi, uning taraqqiyoti tarixi, erishgan yutuqlari, nurli va bo'ronli kunlari, bugungi hayoti hamda istiqbol rejalari bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Sobiq Ittifoq davrida millat va milliylik to'g'risida so'z yuritish mumkin bo'lmaganidek, millat taraqqiyoti, uning jahon sivilizasiyasiga qo'shgan hissasiga ham munosib baho berilmadi. Biroq, mustaqillik sharoitida yoshlar, jumladan, o'quvchilarni o'zbek millatining asl tarixi bilan tanishtirish, ularning o'z ajdodlarini kimligini anglab yetishlari uchun imkoniyat yaratish yo'lida hech qanday to'siq yo'q.

O'quvchilarga millat tarixining shonli sahifalaridan olingan dalillarni yuksak mahorat bilan ko'rsata olish, ularda millat tarixidagi barcha ijobiy, milliy taraqqiyotni ta'minlashda alohida ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar bilan haqli ravishda faxrlanish, iftixor etish hissini uyg'otish zarur.

Iqtisodiy rivojlanish ham mamlakatning kuch-qudrati, obro'-e'tibori hamda uning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, mavqeyini belgilab beradi. Yuqori darajada iqtisodiy ko'rsatkichlarga erisha olish esa fuqarolarda milliy g'urur, faxr va iftixor tuyg'usini hosil qiladi.

Mavjud sharoitda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy yo'nalishda qo'lga kiritilgan va fuqarolarning haqli ravishda faxrlana olishlari uchun asos bo'luvchi manbalarga ega. Ular quyidagilar hisoblanadi:

Mustaqillik yillari ishga tushirilgan va millatning faxriga aylangan sanoat korxonalari

2-jadval

№	Ishlab chiqarish obyektlari	Ishlab chiqarish yo'nalishi
1.	UzDEUavto korxonasi (Andijon viloyati)	Avtomobil ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
2.	«SamKochavto» (Samarqand viloyati)	Mikro avtobuslarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
3.	«Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasi (Navoiy viloyati)	Oltin va kumushni qazib olish, ularni qayta ishlashga ixtisoslashgan
4.	«Sarbontekstil» (Toshkent hamda Sirdaryo viloyatlari)	Ip-gazlama mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
5.	«Kosonsoytekmen» qo'shma korxonasi	Charmni qayta ishlash va charm mahsulotlarini

	(Namangan viloyati)	ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
6.	Nestle Uzbekistan MChJ qo'shma korxonasi (Namangan viloyati)	Sutni qayta ishlash va sut mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
7.	«Tip-top» qo'shma korxonasi (Namangan viloyati)	Salqin ichimliklarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
8.	«Kibo» qo'shma korxonasi (Toshkent viloyati)	Poyafzal mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan

Ushbu qo'shma korxonalarda tayyorlanayotgan mahsulotlarning bugungi kunda qator xorijiy mamlakatlarga eksport qilinishi O'zbekiston nomini jahonga yoymoqda. O'zbekiston Respublikasining jahon ishlab chiqarishidagi mavqeyi esa millat salohiyati, ijodkorligi, bunyodkorligi, yaratuvchanligidan dalolatdir. O'z bunyodkorligini, yaratuvchanlik salohiyatini namoyon eta olish esa millat vakillarida iftixor tuyg'usini qaror toptiradi.

Oilaviy sulola an'analari. O'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda dastlab ularda o'z oilasi, oila a'zolari, qarindosh-urug'lari va yaqin kishilariga nisbatan oddiy muhabbatni tarbiyalashdan boshlash lozim. Bunday muhabbat ularning oilaga, tug'ilib o'sgan joyiga, xalqiga, o'z ona tiliga bo'lgan muhabbat bilan to'ldirilib borilishi kerak.

Vatan, avvalo oila demakdir. Shunday ekan, oilaning mavqeyini anglash, uning sha'ni, obro'-e'tiborini saqlash, g'ururini yuqori darajaga ko'tarish har bir insonning eng oddiy burchi sanaladi. Oila muhitida berilayotgan tarbiya farzandlarni qon-qarindoshlikni ulug'lash, oila sulolasi manfaatlari yo'lida birlashish, uning sha'nini saqlashga o'rgatadi. O'z oilasi uchun fidoiy bo'la olgan, uni qadrlay olgan insongina Vatanini, xalqini qadrlay oladi.

Sport. Sport ham musiqa san'atidek millat, yurt nomini jahonga tez tanitadi, shuningdek, u fuqarolarning faxr, iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ularni o'zbek sportining buguni va istiqboli bilan tanishtirish ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

O'quvchilarning o'zbek sportining yorqin namoyondalari – Rufat Risqiyev, Mixayil An, To'lagan Is'hoqov, Birodar Abduraimov, Mirjalol Qosimov, Azamat Abduraimov, Muhammadqodir Abdullayev, O'tkirbek Haydarov, Bahodir

Sultonov, Artur Grigoryan, Ruslan Chagayev, Akobir Qurbonov, Abdulla Tangriyev, Rustam Qosimjonovlarning faoliyati bilan yaqindan tanishishlari uchun sharoit yaratishga alohida e'tibor berish zarur. Oliy ta'lim muassasalarida jahon va respublika miqyosida yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan sportchilar bilan uchrashuvlarni uyushtirish o'quvchilarga ulardan namuna olishlariga imkon beradi. Shuningdek, o'quvchilarda fizkultura va sport bilan doimiy shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantirish ham ularning kelgusida sport sohasida mamlakat obro'sini ko'tarishlari uchun asos bo'lishi mumkin.

O'quvchilarning sportning turli yo'nalishlari bo'yicha xalqaro va Respublika miqyosida o'tkazilayotgan, jumladan, «Universiada» musobaqalarida ishtirokchi yoki tomoshabin sifatida ishtirok etishlari ham ularning milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Davlat ramzlari. Davlat ramzlari har qanday mamlakatning eng oliy qadriyatlaridan biridir. Binobarin, ularda davlatning shakllanish tarixi, millatning turmush tarzi, hayotiy yondoshuvlari, ijtimoiy munosabatlari mazmuni, milliy qadriyatlari mohiyatida aks etgan orzu-umidlari, niyat-o'ylari, kelajak intilishlari o'z aksini topadi.

Davlat ramzlari xalqaro maydonda mamlakat, millat nomini keng yoyishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli o'quvchilarda davlat ramzlariga bo'lgan cheksiz hurmatni qaror toptirish oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. O'quvchilarning milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlarida ular tomonidan davlat ramzlarining asl mohiyatini anglab yetilishiga erishish alohida ahamiyatga ega.

O'quvchilarni birinchi kursga qabul qilish, bitiruvchi kurs o'quvchilarining xayrlashuv kechalarida davlat ramzlari qarshisida turib o'quvchilik va mutaxassislik qasamyodining qabul qilishlari ham o'ziga xos ta'sirchanlik kasb etadi.

Demak, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishda samarali bo'lgan omillardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday omillar sirasida

millatning shonli tarixi, milliy til imkoniyatlari, xalq qahramonlarining jasorati, milliy qadriyatlar (urf-odat, marosim va an'analar), xalq og'zaki ijodi, adabiyot, ilm-fan, san'at, xalq hunarmandchiligi, milliy me'morchilik, rassomlik, milliy musiqa va qo'shiqchilik, raqs san'ati hamda san'atning boshqa turlari (kino, teatr, sirk, milliy dorbozlik) muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni ishlab chiqarish sohasida erishilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularning oilaviy sulola an'analari bilan xabardor bo'lishlariga erishish, ularda sportga muhabbat uyg'otish, shuningdek, davlat ramzlariga nisbatan cheksiz hurmatni qaror toptirish ham bu jarayon samaradorligini ta'minlaydi.

23. O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishga oid tajriba-sinov ishlari va ularning tahlili

O'z millati, Vatani, xalqi, madaniyati, tarixiy obidalari bilan g'ururlanish o'zbek xalqiga xosdir. O'zbek xalqining boy ma'naviy merosi va tarixiy obidalari bugun jahonga tanilgan.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» risolalarida «O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmatini, or-nomusi va shon-sharafi uning o'ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir.

Biz bundan keyin ham o'zbeklarning milliy g'ururini ma'naviy yuksaltiramiz, shu bilan birga vatanimizda biz bilan yashovchi va O'zbekiston Respublikasiga sadoqatli bo'lgan birodarlikka intilamiz», — deb ta'kidlagan edilar.

Albatta, bu vazifalarni amalga oshirishda har bir o'qituvchi o'z o'quvchi-o'quvchilarida, imon, e'tiqod, sadoqat kabi odamiylik fazilatlarini shakllantirishi, umuminsoniy an'analari, qadriyatlariga sodiq bo'lishga e'tibor qilishi lozim.

Ana shundagina o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatida milliy birlik, milliy g'urur tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan hurmat kabilar bir butun, yaxlit holda shakllanadi.

Shunday ekan, pedagogika kollejlari ta'lim oladigan o'quvchilarni tarbiyalashda milliy xalq an'analari, urf-odatlar, rasm-rusmlar, ma'naviy merosdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki ular o'quvchilarning dars va darsdan

tashqari mashg'ulotlarda egallagan bilimlari, tajribalarini mustahkamlash bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashga tayyorlashning asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham 1-son Samarqand pedagogika kolleji o'qituvchilari bu masalaga alohida e'tibor berib, har bir o'quvchida Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan afsonalar, maqol va matallar, xalq og'zaki ijodi namunalari, buyuk mutafakkirlar va allomalarning sermahsul ijodidan unumli foydalanishga ahamiyat bermoqdalar.

Kollejning adabiyot, tarix, pedagogika, musiqa kabi fanlar o'qituvchilari H.Qoraboyev, O'.Sindarov, G.Xalilova, O.Gadoyev, N.Ochilov, S.Najiyeva, I.Iboyev kabilar amaliy mashg'ulotlarda, sinfdan tashqari ishlarda milliy ana'analardan, milliy qadriyatlardan keng foydalanmoqdalar. Ular Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviylarning boy merosidan foydalangan holda o'quvchilarda milliy g'urur, axloqiy his-tuyg'ularni shakllantirmoqdalar. Har bir dars mashg'ulotlarida buyuk allomalarimizning hikmatlaridan, rivoyatlaridan, g'azallaridan, hadislaridan, xalq og'zaki ijodidan, afsonalaridan, ertaklaridan, laparlaridan foydalanib, bo'lajak o'qituvchi va tarbiyachilarning ma'naviy, axloqiy, milliy g'urur tuyg'ularini rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqdalar.

Pedagogika kollejida o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida munosib ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir o'qituvchi o'quvchilarni tarbiya jarayonida xalqni sevish, Vatanga, jamiyatga foyda keltirish, sadoqatli, odob-axloqli, g'ururli bo'lishi uchun harakat qilmoqdalar.

Ayniqsa «Vatanni sevmoq iymondandur» mavzuida o'tkazilgan tadbir o'quvchilarni Yassaviy, Naqshbandiy, Ibn Sino, Forobiy, Amir Temur, Navoiy kabi alloma va mutafakkirlarning Vatan haqidagi fikrlari bilan yaqindan tanishishga yordam berdi. Tadbir jarayonida o'quvchilar Vatan haqidagi hikmatlarning mohiyatini birma-bir ta'riflashdi. «Vatan deganda nimani tushunasiz? Vatanparvarlik — bu nima? Vatanparvarlik haqida kimlarning hikmatlarini, hadislarini bilasiz va siz bunga qanday qaraysiz? Vatanparvarlik nimaga bog'liq bo'ladi? Qanday insonlar Vatanparvar bo'lishi mumkin?» kabi

savollarga ona zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevish, e'zozlash haqidagi tushunchalarni ifodalashdi.

Pedagogika kollejida o'tkazilayotgan bunday tadbirlar o'quvchilarda millat manfaati bilan yashash, millat obro'siga hissa qo'shish, milliy g'urur kabi ma'naviy qadriyatlarni amalga oshirishning muhim omili bo'lib kelmoqda. Bilim yurtida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashga tayyorlash dasturi ishlab chiqilgan.

G'urur - Ona tilimiz asrlar bo'yi xalqimiz tomonidan zargarona sayqal berilib, shunday mukammal qilib yaratilganki, u orqali har qanday ma'no va tushunchalarni, ularning eng nozik va harir jihatlarigacha aniq va tiniq ifodalash mumkin. Ya'ni necha ming yillar davomida xalqimiz ongi to'lishib boravergan, unda hosil bo'lgan tushunchalarni o'z tub so'zlarimiz bilan ham, o'rnida jahon tillariga oid so'zlar bilan ham, yangi-yangi so'zlar yaratish vositasi bilan ham ifodalangan. Shu tariqa til bisoti boyib kelgan. Tilimizdagi g'urur, fahr va iftixor so'zlarini olib ko'raylik. Bular bir-biriga yaqin ma'nolarni anglatsada, ayni bir paytda bir-biridan muayyan darajada farqlanuvchi tushunchalarni ham bildiradi.

Shaxs gururi — bu faxrdir. Har bir shaxs o'zining yutuqlaridan mamnuniyat hissini tuyadi. Ota-ona qobil farzandlaridan, ustoz iste'dodli shogirdidan, yozuvchi yaxshi asaridan, bog'bon so'lim bog'idan faxrlanadi va hokazo.

Inson o'z kuchiga ishongan va bu bilan faxrlana olgan taqdirdagina biror narsaga erisha oladi. Bu qadr-qimmatini anglash aqlli odamni yanada kamtarin, yanada sabotli qiladi. Kishi uchun o'z qobiliyatidan ortiq darajada g'ururlanish ham, o'z-o'zini yerga urish ham yaramaydi. O'z-o'zligicha qola bilgan odamning g'ururi bus-butundir.

O'ziga ortiqcha bino qo'ymoq, gerdaymoq, kekkaymoq, dimog'dorlik qilmoq — bular takabburlikka kiradi. Hadisi shariflarda aytilishicha, Alloh eng yomon ko'rgan narsalardan biri takabburlikdir. Hatto masjidga gerdayib kirgan odamning namozi qabul bo'lmas ekan. “Manmanlik zavolga, kamtarlik kamolga yetaklaydi”, degan naql shunga ishora bo'lsa kerak. Kishi shunday yashashi joizki, uning yutuqlaridan o'zi ham g'ururlansin, lekin undan ko'ra ko'proq oila a'zolari, xesh-

aqrabolari, mahalla-ko'yi, qolaversa, butun mamlakati faxrlansin, fahrim deb e'zozlasin.

Iftixor. Milliy g'urur — bu milliy iftixordir. Milliy iftixor millat o'zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Bu shunday bir kuchli ruhiy holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma'naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak bir-ligi millat vakillarining qalbidan chuqur o'rin oladi.

Milliy birdamlik tuyg'usi — milliy ongning negizidir. Milliy birdamlik yetuk va mukammal ma'naviy fazilat sifatida, milliy ongi rivojlangan millatlarda tularoq namoyon bo'ladi. Mahalliychilik va guruhbozliklar milliy birdamlik hissiyotining kuchsizlanishiga olib keladi.

Milliy iftixor millat ma'naviy kamolotining barcha jihatlarini, merosi va bugungi qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Milliy istiqloq natijasida erishilgan va erishilajak iqtisodiy va ma'naviy yutuqlar ko'paygani sari O'zbekiston bilan faxrlanish hissi — milliy iftixor shunchalik kuchayib boraveradi. Milliy iftixor mamlakatimizning barcha fuqarolari uchun birdek tegishli va uning yuksala borishi uchun barcha fuqarolar barobar mas'uldirlar.

Xullasi kalom, yuqoridagi sharhlarimizdan ham ko'rinadiki, Iymon serma'no, tabarruk, muqaddas so'z va hosiyatli tushunchadir. Bir so'z bilan aytganda, iymonli odam risoladagi fuqarodir. Bu O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga, Parlamentimiz tomonidan qabul qilingan fuqarolikka doir qonun-qoidalarga ham mos keladi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida o'quvchilarda milliy g'urur, iftixor tuyg'ulari shakllanganligining mavjud darajasini o'rganish maqsadida respondent-o'quvchi va o'qituvchilarning e'tiboriga quyidagi so'rovlarni taklif etdik.

**Jizzax tuman ijtimoiy-iqtisodiyot va bank kasb-hunar kolleji 1-bosqich
o'quvchilariga milliy g'urur tuyg'usini shakllanganlik darajasini o'rganish
bo'yicha**

S O' R O V N O M A

Hurmatli o'quvchi ushbu so'rovnoma ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. Shu bois fikr-mulohazalaringizni xolis bayon qilishingizni so'raymiz. Javoblar uchun oldindan rahmat!

1. Milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash deganda nimani tushunasiz? Fikringizni yozing.

2. O'quvchilarda milliy g'urur va iftixor tushunchalari shakllanganligi qanday deb o'ylaysiz? Yuqori, o'rtacha, past tagiga chizing.

3. Siz tahsil olayotgan kollejdagi o'quvchilarning milliy g'ururi, iftixor va o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirishga e'tibor beriladimi? Fikringizni yozing.

4. Kollejdagi o'qitilayotgan qaysi fanlar sizda milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirishga ko'proq yordam bermoqda? Fikringizni yozing.

5. O'quvchilarda milliy g'urur, iftixor, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini rivojlantirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq? Fikringizni yozing.

**Jizzax tuman ijtimoiy-iqtisodiyot va bank kasb-hunar kolleji 2-bosqich
o'quvchilariga milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga oid**

S O' R O V N O M A

Hurmatli o'quvchi ushbu so'rovnoma ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. Shu bois fikr-mulohazalaringizni xolis bayon qilishingizni so'raymiz. Javoblar uchun oldindan rahmat!

1. O'quvchida milliy g'urur tuyg'usini shakllanishiga yordam beradigan omillarga nimalar kiradi?

2. Davlatimizning milliy davlat ramzlari milliy g'ururni shakllantirishga yordam beradimi? Fikringizni yozing.

3. Milliy qadriyatimizning milliy g'ururni shakllantirish o'rniga o'z munosabatingizni bildiring.

4. To'maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi tarixiy shaxslarning milliy g'ururni shakllantirishdagi imkonini qanday baholaysiz?

5. O'zbek sportchilaridan kimlarning erishgan yutuqlari sizni milliy g'ururimizni shakllantirishga undaydi?

6. Samarqanddagi qaysi tarixiy yodgorliklarni ko'rgansiz va ulardan faxrlanyapsizmi? Fikringizni yozing.

3-ilova

Jizzax tuman ijtimoiy-iqtisodiyot va bank kasb-hunar kolleji o'qituvchilariga o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirish darajasini o'rganish bo'yicha

S O' R O V N O M A

Hurmatli o'qituvchi ushbu so'rovnoma ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. Shu bois fikr-mulohazalaringizni xolis bayon qilishingizni so'raymiz. Javoblar uchun oldindan rahmat!

1. Bugungi yoshlarda milliy g'ururni shakllanganlik darajasi qay darajada deb o'ylaysiz? Past, o'rtacha, yuqori

2. Hozirgi yoshlar millatimiz kelajagi yo'lida mehnat qila oladilarmi? Fikringizni yozing.

3. O'zbekistonning zamonaviy yoshlarini qanday bo'lishini xohlaysiz?

4. Siz saboq berayotgan fandan o'quvchilarda milliy g'urur qay darajada shakllanmoqda?

5. O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirish bo'yicha auditoriyadan tashqari qanday tadbirlarni ko'proq o'tkazish ularda milliy g'ururni shakllantirishga xizmat qiladi deb o'ylaysiz?

6. Siz faoliyat ko'rsatayotgan kollejda o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishga oid qanday tadbirlar ko'proq o'tkaziladi? Fikringizni misollar yordamida yozing.

Ushbu so'rovnomalarga o'quvchilar javob qaytarar ekan, ularning ko'pchiligi «milliy g'urur», «milliy iftixor» tushunchalari ularga xalq qahramonlari, taniqli sportchilar, mutafakkirlar hamda davlat arboblari va ular tomonidan amalga oshirilgan faoliyat mazmuni bilan tanishish niyatini aytib o'tgan.

1-bosqich o'quvchisi Aminjonova Shohista tomonidan qaytarilgan javobda quyidagi fikrlar o'z aksini topgan. U respublikamizda o'tgan yigirma yil davomida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniya sohada amalga oshirilgan ishlar to'g'risida o'z fikrlarini bayon qilgan. Ayniqsa, yurtboshimizning yoshlarga yaratib berayotgan shart-sharoitlaridan mamnun ekanligini aytgan. O'zbek sportchilaridan Abdulla Tangriyev, Mirjalol Qosimov, Rishod Sobirovlarning erishgan yutuqlaridan g'ururlanishini faxr bilan tilga olgan.

O'quvchilarning muayyan qismi o'z javoblarida milliy g'urur va milliy iftixor tushunchalarini o'zlaricha talqin qilishga harakat qilgan. Masalan, 2-bosqich o'quvchisi Jo'rayeva Umida quyidagi javoblarni keltirgan. U milliy g'urur har bir xalqning, millatning o'zini anglashi va o'zligini bilishi najasida paydo bo'ladigan ichki bir ruhiy holat ekanligini aytgan. O'quvchi milliy g'ururi yuqori bo'lgan millat har qanday qiyinchiliklarni yengib, mamlakatning obodligi va xalq farovonligi yo'lida xizmat qilishini ta'kidlagan.

Jumayeva Mohichehra tomonidan berilgan javobda milliy g'urur, milliy iftixorni anglash tushunchalarining mohiyatini yetarli darajada ochib berolmagan.

So'rovnomadan o'rin olgan ikkinchi savolga javob qaytarar ekanlar, o'quvchilarning aksariyat qismi o'zlarida milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ulari shakllanganligini aytib o'tadilar. Bu tajriba va nazorat guruhi o'quvchilarining tanlab olingan 38 nafarida namoyon bo'ldi. Ammo xarakterli tomoni shundaki, o'quvchilar o'zlari xabardor bo'lmagan tuyg'ularni o'zlarida bor deb ko'rsatadilar. Bu o'quvchilar tomonidan ayrim tushunchalarning chuqur o'zlashtirilmayotganligidan dalolat beradi. Shuning uchun kasb-hunar kolleji

o'quvchilariga ijtimoiy-gumanitar va pedagogik turkum fanlarning nazariy asoslarini chuqurroq o'rgatishni talab qiladi.

O'quvchilar keyingi savollarga javob qaytarar ekan ular milliy g'urur va iftixorni o'zlari tahsil o'qiyotgan kollejda dars jarayonida hamda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish paytida shakllantirayotganligini ta'kidlab o'tishgan.

O'quvchilardan 16 nafari milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini anglash xalq merosi manbalarini o'qib o'rganish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, xalq qahramonlari, ulug' mutafakkirlar hamda davlat arboblari tomonidan amalga oshirilgan faoliyat mazmunini tahlil etish asosida shakllanishiga e'tiborini qaratishgan.

Kollej o'quvchilari "Pedagogika", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "O'zbekiston tarixi", "Ma'naviyat asoslari", "Xalq og'zaki ijodi" kabi fanlarning bu boradagi imkoniyatlarini to'g'ri anglay omagan.

Tajriba guruhidan 18 nafar, nazorat guruhidan 16 nafar o'quvchilar qaytargan javoblarda orasida Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar», Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning «Alisher Navoiy», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Amir Temurning «Temur tuzuklari» kabi nasriy hamda H.Olimjonning «O'zbekiston», A.Oripovning «O'zbekiston» va «Men nechun sevaman O'zbekistonni», E.Vohidovning «O'zbekim» «O'zbekistonim», M.Yusufning «Xalqim», «Hech kimga bermaymiz, seni O'zbekiston!» kabi she'riy asarlarning nomlarini ko'rsatib o'tganlar.

Ammo o'quvchilar xalqimizning tarixiy, ma'naviy merosini ifodalaydigan "Alpomish" dostoni, zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto", Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Ahmad Yassaviyning "Hikmat"laridan kam namunalar keltirishgan.

Pedagogika kollejlari o'quvchilarida milliy g'urur, milliy iftixor tushunchalarini shakllantirishda tajribali, saohiyati yuqori o'qituvchilarning o'rni katta ekanligiga ishonch hosil qildik.

Kollej o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomaga quyidagi savollar kiritildi:

1. Bugungi yoshlarda milliy g'ururni shakllanganlik darajasi qay darajada deb o'ylaysiz? Past, o'rtacha, yuqori

2. Hozirgi yoshlar millatimiz kelajagi yo'lida mehnat qila oladilarmi? Fikringizni yozing.

3. O'zbekistonning zamonaviy yoshlarini qanday bo'lishini xohlaysiz?

4. Siz saboq berayotgan fandan o'quvchilarda milliy g'urur qay darajada shakllanmoqda?

5. O'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirish bo'yicha auditoriyadan tashqari qanday tadbirlarni ko'proq o'tkazish ularda milliy g'ururni shakllantirishga xizmat qiladi deb o'ylaysiz?

6. Siz faoliyat ko'rasatayotgan kollejda o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishga oid qanday tadbirlar ko'proq o'tkaziladi? Fikringizni misollar yordamida yozing.

So'rovnoma tarkibidan o'rin olgan birinchi savolga javob berar ekanlar, o'qituvchilar shunday fikrlarni bildirishdi: «Bugungi yoshlarda milliy g'ururni shakllanganlik darajasi qay darajada deb o'ylaysiz?»,-degan savolga ular o'rtacha darajada deb javob qaytirishdi. Demak, o'quvchilarda milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini yuqori darajada shakllantirish uchun ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish, darslarni yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosiga qurishni davr talab etmoqda.


Biz ushbu jarayonni yoritishda pedagogika fanlari doktori Ro'ziyeva Dilnoz Isomjonovnaning "Oliy ta'lim muassasalari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari" nomli doktorlik dissertasiyasidan ijodiy foydalanishga harakat qildik.

O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usi shakllanganligining o'rtacha koeffisienti

T.r	Guruhlar	Tajriba avvalida			Koeffisient
		Yuqori	O'rta	Past	
1.	Tajriba n ₁ =220	21	105	94	4,04

2.	Nazorat $n_2=122$	24	56	42	3,67
----	-------------------	----	----	----	------

Bu ko'rsatkichlar diagrammada ifodalanganda quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ldi:



X U L O S A

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, milliy g'urur, iftixor xalqimizning qudratini, orzularini muvjassamlashtiradigan ulug' bir kuchdir. Mustaqfilligimiz tufayli xalqimizning milliy g'ururi dunyo xalqlari o'rtasida o'z o'rniga ega bo'ldi. Kollej o'quvchilarida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki, milliy g'ururi bor shakllangan farzandlar millatimiz va vatanimizning kelajagiga xizmat qila oladi.

Barkamol avlodni tarbiyalash uchun yosh mutaxassisning yuksak darajadagi milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri ekanligiga ishonch hosil qildik.

O'quvchilarning o'zligi, o'tmishi va bugunini chuqur anglash, shunga asosan, kelajagini belgilashga undaydi. Bunday sharoitda milliy iftixor tuyg'usi bilan kamol topgan, o'zligini anglab yetgan yosh mutaxassislarni tarbiyalab yetishtirish kasb-hunar kollejlarining asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda.

Bu vazifani hal qilish uchun kasb-hunar kollejlarda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning milliy g'urur tuyg'usining mazmuni, uni o'quvchilarda shakllantirish imkoniyatlari, dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirish imkoniyatlaridan foydalanishni davr taqozo qiladi. Shu bois o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishning mazmuni, shakl, usul va metodlarini belgilash, bu sohada mavjud bo'lgan tarixiy tajribalarni umumlashtirish lozimligiga ishonch hosil qildik.

O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri – ular o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish asosida ularda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, jumladan, milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish yo'lidagi barcha imkoniyatlardan samarali, unumli foydalanish hisoblanadi.

Milliy g'urur tuyg'usining shakllanishi, o'quvchilarning hissiyotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar ularda milliy g'urur, iftixor ko'nikmalarini shakllantirishning muhim subyektiv omillaridir. Bundan tashqari milliy g'urur

tuyg'usini shakllantirishda o'quvchining milliy mansubligiga hurmat, unda millatning yutuqlaridan g'ururlanish ko'nikmalarini shakllantirish, o'z ustida ishlashga rag'bat uyg'otish, mustaqil ta'lim olishga intilishni shakllantirish va yo'naltirish kabi qator omillar ham mavjudki, ularni uyg'unlashtirish kerak.

Milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda auditoriyadan tashqarida ham keng imkoniyatlar mavjud. Suhbat, bahs-munozara, badiiy kecha va anjumanlarni rejali tarzda uyushtirish, sayohatlarni tashkil qilishda mazkur vazifa yechimiga bevosita yondashilsa, to'garaklar, sport mashg'ulotlari, musobaqalar, ko'rik-konkurslar, ijtimoiy foydali mehnat va boshqa faoliyat turlarida ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshirish mumkin. Shaxsda milliy urur tuyg'usini shakllantirish vositalari ichida asosiy o'rinlardan biri o'z ustida ishlash, mustaqil bilim olishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 - yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T.: «O'zbekiston», 1992, 46 b.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992, 46 b.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997, 63 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1993, 216 b.
6. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. -T.: O'zbekiston, 1994, 160 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston, 1999, 48 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat -T.: O'zbekiston, 1992, 62 b.
9. Karimov I.A. Ulug'lari e'zozlangan yurt zavol ko'rmagay / O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2001, 25 avgust
10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston 1997, 324 b.
11. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddas. -T.: O'zbekiston, 1995, 275 b.
12. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998, 686 b
13. Barkamol avlod orzusi // Kurbonov Sh., Sayidov H, Ahliddinov R. to'ldirilgan ikkinchi nashri – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
14. B.Hakimova. O'quvchilarni milliy g'urur ruhida tarbiyalashga o'qituvchiarni tayyorlash. //Xalq ta'limi. №6, 1997, 23-27 b.
15. Vatan tuyg'usi /A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jurayev. -T.: O'zbekiston, 1997. - 439 b.
16. Ziyoyev H Istiqlol-ma'naviyat negizi. T.: Ma'naviyat, 1999y 190 b
17. Ziyoyev H. O'zbek xalqining shakllanishi. /Guliston, № 4. 1990y.
18. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997 y. -272 b.
19. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. Mas'ul muharrir: N.Komilov.-T: «Sharq», 1998. -240b.

20. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. -T.:Fan, 1994 y. -133 b.
21. Munavvarov A. Pedagogika. -T.: O'qituvchi, 1996 y. -200 b.
22. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. // Mualliflar: M.Abdullayev, M.Abdullayeva, G.Abdurazzoqova va boshq. T.: «Sharq», 1998 y, 320 b.
23. Musurmonova O. Oila ma'naviyati-milliy g'urur. (O'quv qo'llanma).-T.: "O'qituvchi", 1999, -200 b.
24. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilarida ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. T.: 1993, 364 b.
25. Nishonova S. Milliy qadriyatlar va barkamol inson tarbiyasi. / Xalq ta'limi. 1999 yil, №3, 16-19 b.
26. Pedagogika kursi. Tursunov I., Nishonaliyev U. -T.: O'qituvchi, 1997 y. -232b.
27. Pedagogika Mavlonova R. va boshq. – T.: O'qituvchi 2001 y, 512 b
28. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchilar: O.Hasanboyeva. -T.: O'qituvchi, 1993 y. -206 b.
29. Po'latov X. Mustaqilligimiz qadriyatlari. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1993 y. 11 iyun.
30. Ro'ziyeva Dilnoz Isomjonovna. Oliy ta'lim muassasalari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.// 13.00.01 – Umumiy pedagogika, pedagogika va ta'lim tarixi// Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. 243 b.
31. Tohirov O. Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarini e'zozlash ruhida tarbiyalash. / Xalq ta'limi, 1992 y. -4-5 b.
32. Falsafa qomusiy lug'at. -T.: Sharq, 2004, 492 b.
33. www.ziyonet.uz
34. www.pedagog.zu.uz
35. www.plani.polis.iiep.unesco.org.
36. www.ziyo.namsu.uz.
37. WWW.TDPU.uz